

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

FALSAFA FAKULTETI

«FALSAFA VA FAN METODOLOGIYASI» KAFEDRASI

“FALSAFAGA KIRISH”
KURSIDAN QISQA MATNLAR

Toshkent – 2010

KIRISH

“Falsafaga kirish” kursidan yozilgan ushbu matnlarning asosiy vazifasi talabani qisqacha bo‘lsa ham falsafa qanday ma’naviy hodisa ekani bilan tanishtirishdan iborat.

Ushbu kursning kerakligi va dolzarbligi alohida e’tiborga loyiq. Zero, O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgunga qadar yakkayu yagona to‘g‘ri ta’limot bo‘lib kelgan va mafkuraning mustahkam poydevori hisoblangan eski falsafa o‘rniga o‘z milliy falsafamizni shakllantirish vazifasini amalga oshirish yo‘lida izlanish olib borar ekanmiz, bu yangi falsafa jamiyatimiz hayoti uchun eng yaroqli ta’limot qanday bo‘lishi kerakligi masalasini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Shu ma’noda falsafa dunyoqarashning barcha shakllari orasidagi o‘rnini va ularga munosabati masalasini, ma’naviyatning boshqa sohalari bilan bog‘lanishlarini aniqlab olish zarurati katta. Ayniqsa, diniy ekstremizm va fundamentalizm taz’iyi mavjud bo‘lib turgan sharoitda dinning mazmuni va yangi falsafaning unga munosabati masalasini, ilmiy-texnika revolyutsiyasi tufayli kelib chiqqan ekologik umumbashariy krizislar sharoitida falsafaning fanga, ilmiy dunyoqarashga munosabati masalasini va umuman, falsafaning boshqa dunyoqarash shakllaridan farqi, afzal va umumiy jihatlari masalasini yyechishga harakat qilmaslik mumkin emas.

Mazkur qisqacha matnlar shunday ehtiyojning natijasi o‘laroq tayyorlandi. Bu kursdan yozilgan birinchi ish sifatida uning muayyan nazariy, mantiqiy va boshqa kamchiliklari bo‘lishi tabiiy.

Shunga qaramasdan talabanning falsafa bilan dastlabki tanishuvi uchun tayanch bo‘ladi degan umidda bu ish iloji boricha zudlik bilan amalga oshirildi. Mustaqillikka erishilgan 14 yil mobaynida xosil bo‘lgan ma’naviy bo‘shliqqa biroz bo‘lsa ham qo‘shib qo‘yish mumkinligi talabanning ham keyingi izlanishlari uchun asos bo‘lishi mumkinligi nazarda tutildi.

Qisqacha matn Falsafa fakultetining Ilmiy Kengashida ko‘rib chiqilib tasdiqlangan bayonnoma № 11 2004 yil 30 iyun.

Ma'sul muharrir: f.f.n. dots. X.P. To‘xtayev

Muallif: f.f.n., dots. Sh.B. Qahhorova

Taqrizchilar: f.f.d. N.A.Shermuhamedova,

F.f.d. G.J.Tulenova

Lotin alifbosiga o‘giran: Rizayeva M.

**1 - MAVZU:
DUNYOQARASH, UNING INSON
VA JAMIYAT HAYOTIDAGI ROLI**

REJA:

1. *Dunyoqarash tushunchasi. Dunyoqarash mazmuniga kiradigan muammolar doirasi*
2. *Dunyoqarashning tarkibiy tuzilishi (strukturasi).*
3. *Dunyoqarashning miqyoslari. Dunyoqarash va mafkura.*

1. Dunyoqarash tushunchasi. Dunyoqarash mazmuniga kiradigan muammolar doirasi. Eng qadim zamonlardan to shu bugunga qadar barcha tarixiy davrlarda har qanday fikrlovchi kishini qiziqtirib kelgan shunday masalalar borki ularga javob izlash insonning chin insoniy mohiyatini uning hayvondan keskin farqini belgilaydi. Bularga inson yashab turgan dunyoning mohiyati tabiati qanday? Bu dunyo o'zi qanday vujudga kelgan u nimalardan tashkil topgan? Dunyoda inson qanday o'rinni egallaydi? Insonning mohiyati nimada? Inson hayotida biron ma'no bormi yo yo'kmi? Inson nimaga intilib yashamog'i kerak? Hayot nima? O'lim nima? O'limdan so'ng insonning qanday voqelik kutadi? Yoki hech qanday voqelik bo'lmaydimi? Abadiyat nima, u bormi yo yo'qmi? Agar bor bo'lsa, unga qanday erishish mumkin? Inson tafakkuri nima? Tafakkur yordamida borliqni bilish mumkinmi? Inson tafakkuri o'zini kurshib turgan borliqqa, avvalo ijtimoiy borliqqa qanday munosabatda bo'lmog'i lozim? Ya'ni u tabiatda va jamiyatda o'zini qanday tutmog'i kerak? U zo'ravonlarcha yashashi kerakmi yo qullarchami? Shu kabi masalalar insoniyatning barcha avlodlarni qiziqtirib kelgan abadiy muammolardir. Davrlar o'tishi mobaynida ushbu masalalar doirasi yangi muammolar bilan boyib boravergan.

Masalan: "Kommunizm" davrida jamiyatimiz porloq istiqbolga intilib yashagan edi, endilikda - mustaqillik sharoitida qaysi marraga intilmoq kerak? Umuman, er qurrasidagi hozirgi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotni qanday baholamoq kerak. Hozirgi davr ekologik sharoitini, uning sabab va oqibatlarini baholamoq va u bilan bog'liq qaltis ahvoldan qanday qutilmoq mumkin? Umumbashariy qadriyatlar nimalardan iborat, ularni qanday aniqlash rivojlantirish va himoyalash mumkin? va shu kabilar yangi savollar jumlasiga kiradi.

Hayotda uchraydigan boshqa savollardan farqi shundaki, birinchidan bu savollar shu darajada murakkab va chuqurki, ularga buyuk hikmat egalari necha asrlardan javob izlab kelganlar va yyechimsiz muammolar hamon bor; ikkinchidan, bu savollar bir individ hayotiga emas, butun

insoniyatga taalluqlidir; uchinchidan, agar bu savollarga to'g'ri yechim topilsa, boshqa har qanday savol yechimining kaliti topilgan bo'ladi; to'rtinchidan, shu savollarga o'zini qoniqtiradigan javob topilmagunicha oqil inson o'zini chinakam baxtli deb his eta olmaydi.

Masalan: Buyuk donishmand, olim Umar Xayyom bu haqida shunday yozganlar:

*Men tug'ildim, gardun ko'rdimi foyda,
O'lsam, martabasin oshmog'i qayda?
Hech kim tushuntirib bera olmaydi
Kelib - ketishimning foydasi qayda?*

Shunday masalalarni umumlashtirib, bir so'z bilan dunyoning mohiyati va unda insonning tutgan o'zni haqidagi yoki, qisqa qilib, dunyoning (shu jumladan inson ichki dunyosining) mohiyati haqidagi masalalar yoki, yana ham qisqacha: dunyoqarash masalalari deyiladi.

Mazkur savollarga berilgan javobdan kishining dunyoqarashi qandayligi ko'rinadi. Dunyoqarash inson ma'naviyatining, uning ichki ruhiy dunyosining muhim, zaruriy qismidir.

2. Dunyoqarashning tarkibiy tuzilishi (strukturasi). Tirik mavjudotlarning hech biri o'z hayotining ma'no-mohiyati xususida bosh qotirmaydi. Zero, odam bolasidan bo'lak hech qaysi jonzot o'zining jismoniy ehtiyojlaridan yuqoriroq ko'tarilgan emas. Yuqoridagi savollarni umumlashtirsak, ular dunyoning mohiyati va unda insonning tutgan o'zni haqidagi masalaga aylanadi va dunyo deganimizda fakat tashqi dunyoni emas, balki ichki, ruhiy dunyoni ham tushunish kerak.

Inson dunyoqarashi o'z-o'zidan (stixiyali) shakllanishi ham mumkin yoki yaxshi tashkil etilgan, maxsus bilimlarni tartib bilan o'zlashtirish yordamida hosil qilinishi ham mumkin. Birinchi holda inson dunyoqarashini atrof-muhit va o'z ruhiy kechinmalari tarbiyalanadi. Ikkinchi holda esa, u o'ziga qadar dunyoqarash masalalarida oldinga surilgan g'oyalarga bilan izchil tanishib borib, ularni tahlil etib, taqqoslab, o'z xulosalarini chiqarib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu ma'noda inson dunyoqarashining shakllanishida bilimning roli katta. Bilimning o'zi ham murakkab hodisa bo'lib, uning shakllari, darajalari, ko'plab xillari bor. Shakllariga ko'ra bilim ilmiy, diniy, falsafiy, ijtimoiy, gumanitar, tabiiy-ilmiy, texnikaviy va boshqalarga bo'linadi. Maxsus bilishga ko'ra - matematik, fizika, boshqalar. Darajalariga ko'ra esa, kundalik ratsional (aqliy) va irratsional (mistik-sirli) ilmlar mavjudligi ma'lum. Bundan tashqari, amaliy va nazariy, dunyoviy va ruhiy bilimlar ham ajratiladi. Bilimning har bir shakli, xili yoki darajasi o'z o'zni, ahamiyatga ega.

Donishmandlarning ta'kidlashiga ko'ra, bilimlar ichida eng oliysi-o'zlikni bilmoq ilmidir. Chunki o'zini bilmagan inson o'zga hech nimani xaqiqiy bila olmaydi. Ayni shu o'zlikni bilish eng qiyin, lekin muhim ish hisoblanadi. Zero o'zini bilmagan inson o'ziga yoqmaydigan barcha ishlarni boshqa odamlardan, tashqi sabablardan izlaydi. O'zini bilgan inson sababni o'zidan izlay oladi. Bilim e'tiqod bilan uzviy bog'liq. E'tiqod tushunchasi ishonch, iymon degan ma'nolar bilan uyg'un. Kishida ba'zan e'tiqod, ba'zan bilim ustun o'rnida chiqadi. Bilimsiz e'tiqod ko'r-ko'rona e'tiqod bo'ladi va fanatizm deb ataladi. Ezgulikka, yaxshilik, go'zallika va h. k. lar e'tiqod bilan bog'lanmagan bilimni razolatga, qabohatga, katta fojialarga olib keladi. Bilimni deb e'tiqoddan, e'tiqodni deb bilimdan yuz o'girmaslikda katta hikmat yashiringan.

Dunyoqarash shakllanishida faqat bilimning, g'oyalarning, emas, his-tuyg'ularning ham roli katta. Ko'p hollarda chuqur bilim orqali tushunib etilmagan masala his-tuyg'u orqali tez va yaxshi oydinlashadi va kichik dunyoqarashda o'chmas iz qoldiradi. Lekin duyoqarashning shakllanishida bilimning ham, xis-tuyg'ularning ham rolini bir-biridan ortiq yo kam hisoblab bo'lmaydi. Zero, bilimsiz faqat xis-tuyg'ular behad rivojlanaversa, buning telbalikdan farqi qolmaydi. Aksincha, bilimi kuchli odamlar ko'pincha behis, loqayd, dili, qalbi qattiq, berahm, beshavqat bo'ladilar. Insonda unisi ham, bunisi ham uyg'un va rivojlanishda bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Jamiyatdagi barcha ziddiyatlar bilimning sayozligi, his-tuyg'ularning tubanligidan kelib chiqadi. Bilimdagi yuzakilik, to'xtalishlar inson dunyoqarashining cheklanib qolishga olib keladi. Bu hol ilmiy tilda dogmatizm deyiladi. Demak, inson bilimlari hayotining o'zi bilan hamohang ravishda hamisha o'sib borishi kerak.

Payg'ambar Muhammad a.s o'z hadislarida "Ilm istamoq har bir musulmonga farzdir", "Bir soat ilm o'rganmoq, bir tun uyg'onib namoz o'kimoqdan hayrliroqdir", "Beshikdan qabrgacha ilm izlang", "Ilmni Xitoydan bo'lsa ham oling", "Odamzotning kamchiligi uning bilimsizligidadir", "Avvalo olim bo'ling yuqsa, ta'lim oluvchi bo'ling, loaqal ulamolarni (olimlarni, ilm egalarini) sevuvchi bo'ling, to'rtinchisi bo'lmang, halok bo'lasiz", "Ilm o'rganmok Olloh huzurida namozdan, ro'zadan, sadoqatdan, hajdan va Azizu Jalil bo'lgan Olloh yo'lida jang qilishdan ham afzaldir" degan qator hadislarini insoniyatga qoldirmaganlari bejiz emas. Inson bilimlari tinimsiz o'sib borishi kerak. Lekin ayni zamonda uning axloqiy qiyofasi, his-tuyg'ulari ham shu bilan teng, barobar rivoj topishi kerak. Zero axloqiylik bilan uyg'un, payvasta bo'lmagan bilim qancha ko'p bo'lsa, shuncha zararlidir. Chunki axloqli

inson o‘z bilimidan boshqalar zarariga foydalanmaydi, axloqsiz insonning esa bilimi qancha ko‘p bo‘lsa boshqa insonlarga jamiyatga zarari shuncha ko‘p bo‘ladi. Demak bilimning dastlabki sharti ham axloqiylikdir. Axloqiylikning oliy shakli esa o‘z yaqinlariga va o‘zgalarga bo‘lgan mehr-muhabbatdir. Zero inson bilimsiz ko‘rlarcha yashasa, ishqsiz bir-birlariga begonalarcha shavqu-zavqsiz, quvonchlarsiz, o‘z-aro ziddiyat va janjallar ichida yashaydi. Ayni zamonda bilim ham muhabbat ham axloqiy zaminga tayanishi kerak. Mashhur yunon donishmandi Arastu aytganiday, “Kimki bilimda ilgarilab, axloqda oqsaydigan bo‘lsa, bilingki u oldinga emas katta tezlik bilan tubanlik sari ketyapti” yuqorida yuritilgan mulohazalardan inson o‘z hayotida nimalarni qadrlashi kerakligi ham kelib chiqadi. Qadriyat haqidagi tasavvurlar ham inson dunyoqarashini mazmuniga kiradi. Insoniyatga quyidagi qadriyatlar ma'lum: hayot, erkinlik (ozodlik), adolat, sog‘liq, bilim, muhabbat, tinchlik, vaqt, farovonlik, vatan va h.k. Bular hammasi o‘zaro bog‘liq. Masalan, adolat yuq joyda hayotning qadri qolmaydi, tinchlik bo‘lmasa, farovonlik bo‘lmaydi, erkinlik bo‘lmasa ijod yuksalish farovonlik bo‘lmaydi va h.k. Inson o‘z hayot yo‘lida qaysi qadriyatni ustun o‘ringa qo‘yishi uning axloqiyligiga bog‘liq. Axloqiylik yo‘q joyda har qanday qadriyat o‘zining asl mohiyatidan uzoqlashadi, buziladi. Shunday qilib, dunyoqarash mazmuniga bilim xis-tuyg‘ular, axloqiylik sifatidan kelib chiqadigan qadriyat haqidagi tasavvurlar kiradi. Inson o‘z bilimi, tuyg‘ulari, axloqi, qadriyat haqidagi tasavvurlardan kelib chiqib muayyan faoliyat sodir etadi.

3. Dunyoqarashning miqyoslari. Dunyoqarash va mafkura

Demak dunyoqarash-bilim va qadriyatlarni dunyoni anglash va xis etishning turli darajadagi ishonch va ikkilanishlarning hamda ularga mos keladigan hatti-harakatlarning ziddiyatli birligidan tashkil topadigan murakkab tuzilmadir. Dunyoqarashning mazmunini bundan ham chuqurroq ochish mumkin. Buning uchun dunyoqarash darajalarini ham farqlab olish maqsadga muvofiqdir. Zero, dunyoqarash insonning kundalik hayotiy tajribalari va ko‘nikmalariga asoslangan bo‘lishi mumkin yoki turli xil ilmiy bilim, nazariyalariga tayangan maxsus tayyorgarlikka asoslangan bo‘lishi ham mumkin. Birinchisini amaliy yoki “hayot falsafasi” deyiladi. Ikkinchisi nazariy darajadir. Birinchisi o‘z-o‘zidan (stixiyali) shakllanadi va rivojlanadi, ikkinchisi maxsus nazariy tayyorgarlik orqali xosil qilinadi. Birinchi daraja ommaviy bo‘lsa, ikkinchisi ommaviy emas. Jamiyat hayotida har ikkala darajani ham to‘g‘ri hisobga olish jamiyat osoyishtaligi, farovonligi, ma’naviy sog‘lomligini shartidir. Hayotiy amaliy daraja hamma uchun bir tekis bo‘lmaydi. Zero uning egalari bir xil emas.

Ularning tabiati aqliy qobiliyatlari, xis-tuygʻulari har xil. Ular orasida jamiyatning umuman butun sivilizatsiyaning ma'naviy hayotiga jiddiy ta'sir eta oladiganlari ham bor. Masalan; Amir Temur, yozuvchilardan A.Qodiriy, Oybek, davrining jahonga mashhur yozuvchisi Chingiz Aytmatovlar shular jumlasidandir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "hayot falsafasi" ning mazmuniga faqat ijobiy tajriba, malaka, an'analargina kirmaydi, balki turli hildagi zararli tajribalar, aynishlar, adashuvlar ham aralashab qoladi. Zero, kishilarning kundalik hayoti xilma-xil xatoliklardan, salbiy xis tuygʻu, hatti-harakatlardan forigʻ emasdir. Shu tufayli dunyoqarashning mazkur darajasi umuman olganda noizchil bo'lish mumkin. Shunga ko'ra uni chuqur, jiddiy bo'limlar, ilm-fanning boy ma'lumotlarini jalb etishni taqozo etadigan, murakkab dunyoqarovchanlik muammolarni yechishga ko'pincha juda yaroqli bo'la olmaydi.

Dunyoqarashning nazariy darajasi dunyo haqidagi nafaqat amaliy, balki maxsus nazariy ilmiy bilimlar majmuasini ham aqlning tanqidiy hukmi orqali o'tkazgan, umumlashtirgan, tartiblashtirilgan tizimidir. (Bunday tizimga falsafa misol bo'ladi). Demak, dunyoqarashning kamida ikki xil kundalik hayotiy (amaliy) hamda nazariy darajalari mavjudligini ham hisobga olsak, dunyoqarash-bu dunyoni anglash va his etishning, qadriyat haqidagi mos hatti-harakatlarining ziddiyatli birligidan tashkil topadigan murakkab ma'naviy tuzimdir.

Inson o'z hayoti mobaynida dunyoqarashning har ikki darajasini ham mujassam etish imkoniyatiga ega. Buning uchun dunyo haqidagi maxsus, chuqur nazariy bilimlarni kundalik hayotiy tajribalar bilan tug'ri payvand eta borishning ahamiyati katta. Bunday inson donishmandga aylanishi mumkin. Xalq bunday insonlarni donishmandlar, hikmat ahli deb atagan. Dunyoqarash tushunchasiga miqyos nuqtai nazaridan ham yondoshilishi kerak. Zero goho gap faqat bir individning dunyoqarashi (individual, shaxsiy dunyoqarash) haqida borsa, goho oila, guruh, ijtimoiy tabaqa, urugʻ, millat, elat va umuman butun insoniyat dunyoqarashi haqida ham ketadi. Lekin bu miqyoslar bir-biridan mutlaqo farqli emas, balki o'zaro bog'likdir. Bu bog'lanish individ, oila, guruh va h.k. larning qanchalik keng qamrovligidan kelib chiqadi. Masalan, Suqrot va Navoiy kabi zotlarning dunyoqarashlari individuallik miqyosidan shuncha yuqoriki, ularning dunyoqarashini umumbashariy deyiladi. Ya'ni ularning g'oyalari, qarashlari butun insoniyatning ma'naviy boyligidir va aksincha shunday tor dunyoqarashli individlar borki, qarashlari o'zlarining kundalik nafslari doirasidan chetga chiqa olmaydi. Har bir insondagi kabi, har bir

jamiyatning tarixiy dunyoqarashi o'zgarib, rivojlanib turadi. Dunyoqarashning ijtimoiy hayotni tartiblashtirishga oid g'oyalari mafkura nomini olgan. Mafkura davlat siyosatining birinchi asosini tashkil etadigan g'oyalar tizimidir. Yoki boshqacha aytganda, mafkura dunyoqarashning ijtimoiy amaliyotda qo'llanishidir. Dunyoqarashi yaxlit tizim holiga kelmagan jamiyatda mafkura plyuralistik xarakterda bo'ladi. Mafkuraning asosida yotgan dunyoqarash o'zgarishi bilan mafkura ham o'zgaradi. Dunyoqarashning o'zgaruvchanligi individ, millat va butun insoniyatning tinimsiz taraqqiyoti tufayli sodir bo'ladi.

2 - MAVZU: MIFOLOGIK DUNYOQARASH REJA:

1. *Mifologik dunyoqarashning o'ziga xosligi*
2. *Mifni yangicha tushunish*
3. *Hozirgi davrda mifologik dunyoqarashga boshqacha yondoshuv zarurati*

1. Mifologik dunyoqarashning o'ziga xosligi. Insoniyat dunyoqarashi turli tarixiy shakllarga ham ajratib qaraladi. Zero, bashariyat tarixining turli davrlarida turli dunyoqarash shakllari ustunroq o'rin egallagani nazarda tutildi. Shuning uchun dunyoqarashning har bir shaklini alohida ko'zdan kechirib chiqish ularning o'ziga hosligi va bir-biri bilan bog'liqligini o'rganish falsafaning nima ekanini tushunishda juda katta ahamiyatga ega. Asosan dunyoqarashning quyidagi to'rt shakli ajratiladi: 1.Mifologik 2.Diniy 3.Ilmiy 4.Falsafiy. Shulardan birinchisini ko'rishga kirishamiz:

- "Mif"atamasi falsafaga yunon tilidan kirib kelgan bo'lib "naql", "rivoyat", "doston", "epos", "afsona", "qissa" kabi so'zlarga ma'nodoshdir. "Logos" atamasi esa "ta'limot" degan ma'noni bildiradi. Mifologik dunyoqarash mazmunidan joy olgan miflar xudolar qahramon shaxslar ruhlar shayton va hokazolar haqida ular orasidagi munosabatlar haqida hikoya qiladi. Qadimgi Yunonistonda "Oddiseya", "Illiada" dostonlari, "Gerakl" qissasi, qadimgi Hindistonda "Mahabhorat", "Ramayana" eposlari, O'rta Osiyoda "Rustam" haqidagi doston, "To'maris" va "Shiroq" afsonalari qolaversa, Payg'ambarlar va avliyolar amalga oshirgan mo'jizalar hamda payg'ambarlar tufayli dunyoga kelgan muqaddas kitoblar mazmuni ham mifologik dunyoqarashga misol bo'ladi.

Mifologiya dunyoqarashning boshqa shakllariga nisbatan ancha oldin shakllangani hamda ayniqsa, oldingi davr mafkurasining ta'siri tufayli noto'g'ri talqin etib kelgan. Hozirgi kunda ham u haqida eski qarashlar

saqlanmoqda. Bu hol miqlarga inson ongining keng kam rivojlangan shakli noreal nojiddiy, faqat hayoliy, fantastik mazmunga ega bo'lgan bolalar ongiga mos ertaklar degan qarashlarda namoyon bo'ladi.

Mifologiyaviy dunyoqarashning ertakka o'xshab ketishning o'z sababi bor. Eski mafkuradan xolis izlanish olib borgan mutaxassislarining fikriga ko'ra miqlar so'zlar vositasida odamlarga yetkazish qiyin bo'lgan g'ayrioddiy voqealar, mazmuni maxsus ramzlar, allegorriyalar, qiyoslar va h.k. vositasida bayon etishga bo'lgan urinish samarasidir. Shu ma'noda mifologik dunyoqarashni simvolik dunyoqarash deb atasak ham bo'ladi. Shu ma'noda miqlarga hamon avvalicha qarashda turish (dogmatizm) to'g'ri emas. Boshqa tomondan qaraganda mifologiyaviy dunyoqarashni qadimiy odamlar ongining mahsuli va shuning uchun u tobora barham topayapti degan qarashlar ham to'g'ri emas. Kishilik tarixining hamma davrlarida miqlar va mifologiya doimo bulgan va bo'laveradi. Qadimiy davrdan keyin yaratilgan mifologik asarlar jumlasiga F.Attorning (1151-1235) ko'plab asarlarini xususan «Go'zal shoh hikoyati»ni, «Mantiq ut tayr» asarini, A.Navoiyning (1441-1501) «Lisonut tayr» asarini va boshqa asarlarini italiyalik mashhur shoir Dante Aligerining (1265-1331) «Ilohiy komediya»sini frantsuz shoiri A.Remboning (1854-1891) «Yorishuv» , «Do'zax ichra o'tib» asarini, hind mistik faylasufi va shoiri Shri Aurobindo Gxoshning (1872-1950) Hindistonning beshinchi Vedasi deb hisoblanadigan «Savitri» eposini keltiri mumkin. Mifologik dunyoqarash elementlari Ch.Aytmatovning ko'p asarlarida ham uchraydi. Bulardan kelib chiqib, mifologik dunyoqarash hozirgi davrda barham topayotgani yuq, balki, aksincha, qayta kashf etilyapti deyish o'rinliroqdir.

4. Mifni yangicha tushunish. Mifologik dunyoqarashning yana bir o'ziga xosligi shundaki, unda inson va borliq, tabiat bir-biridan ajralgan holda emas, yaxlit, bir butun holda qaraladi. Ba'zi falsafiy adabiyotlarda miqlarda inson borliqning markaziga qo'yiladi, degan g'oya oldinga surilgan. Lekin bu uncha to'g'ri emas. Zero, mifologiyaga chuqurroq nazar solsak, unda insonning tabiat ichiga g'arq bo'lib ketishni, ya'ni tabiatda erib ketishini payqashimiz mumkin. Albatta va masala keyinchalik o'zining yanada keng va konkret tahlilini kutmokda.

Mifologiyada dunyoning (borliqning) vujudga kelishi (genezisi) masalalariga alohida e'tibor beriladi, hamda butun borliq mohiyatan ruhiy deb qaraladi. Xususan, tabiat va jamiyat hodisalarning kelib chiqishi asoslari, sabablari, kim yo nima tomonidan vujudga keltirilganligi kabilar keng yoritiladi. Masalan, Gesiodning «Teogoniya», Gomerning «Illiada», «Odissey» kabi mifologik asarlarida olamning paydo bo'lishi quyidagicha

tushuntiriladi: eng birinchi bor bo'lgan narsa bu abadiy, tubsiz, cheksiz qorong'ulik - kaosdir. Xaos hayot manbai bo'lgan. Barcha boshqa narsalar, shu jumladan abadiy Xudolar ham shu kaosdan vujudga kelgan. YYEr xudosi Geya ham shunday paydo bo'lgan. Geyadan esa barcha erdagi narsalarga hayot baxsh etuvchi sevgi-Eros vujudga kelgan. Cheksiz kaos zulmat-Erebni qorong'u tun-Nyuktani ham vujudga keltirgan. Tun va Zulmatdan esa yorug'lik-Ifor, hamda kun-Xemora paydo bo'lganlar. Shu tarzda yorug'lik olam uzra ziyo tarata boshlagan, tun va kun almashinuvi qaror topgan va h.k. xuddi shunday rivoyatlar Hind, Xitoy, Qadimgi O'rta Osiyo, Bobil, Misr mifologiyalarida ham bor. Ushbu miflarda atrof borliqqa to'g'ri axloqiy va estetik munosabatda bo'lish g'oyalari badiiy, ramziy obrazlar vositasida, hissiy-emitsional vaziyat uyg'onish orqali vujudga keltiriladi. Mifologiyani tushunmoq uchun ramzlar (simvollar) ma'nosini bilish zarur. Aks xolda miflar faqat bolalar ertagi bo'lib qoladi, uning teran ma'nosi esa yashirinib qolib ketadi. Shu ma'noda mifologiya buyuk «sir»larni o'zida jo etgan dunyoqarashdir. Ilmiy tilda mifologiya davri simvolik davr deb ham ataladi.

Mifologik dunyoqarashning yana bir muhim jihati shundaki, u keyin kelib chiqqan dunyoqarashning boshqa sikllari-din, falsafa, ilmiy bilimlar manbai, ildizidir. Shuning uchun ham uni yaxshi tushunishning ahamiyati katta. Zero, tarixga (ildizlarimizga) qanchalik to'g'ri va teran nazar sola olsak, biz bugungi axvolimizni to'g'ri anglash va kelajagimizni to'g'ri ko'rish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Mifologik dunyoqarashga Markscha qarashdan mutlaqo boshqacha yondashuvni rus faylasufi A.F.Losevning falsafiy ijodida yaqqolroq ko'rish mumkin. Bu yerda shunga alohida ta'kidlamoq joizki, ushbu faylasufga totalitar sotsializm davrida mifologiyani o'rganish ayniqsa zamonaviy mifologiya haqida asarlar yozish man etilgan edi. Shunga qaramasdan, u o'z ijodini to'xtatib qo'ymadi va «Dialektika mifa» (Mif dialektikasi) nomli asarini yozdi, shu tufayli qamoqqa olindi va 10 yil surganda yashadi. Uni zararli idealist sifatida qoraladilar. Ushbu faktlardan mifologik dunyoqarashni mustabid tuzum manfaatlariga zid kelgan jihatlari nimada ekanligini bilish zarurati vujudga keladi. Zero, busiz mifologiya hususidagi haqiqatni anglash mumkin emas. Shuning uchun A.F.Losevning 1991 yilda nashr ettirilgan «Mif dialiktikasi»ga bag'ishlangan asarida bayon etilgan mifga bo'lgan boshqacha yondashuvni nazarimizdan o'tkazish zarurati bor. Mazkur asarning butun-butun boblari totalitar sotsializm mafkurasi davrida mifga berilgan ta'rifning noto'g'ri jihatlari ochib berishga qaralgan. Ushbu ish asar boblarining nomidanoq

ko‘rinib turadi. Masalan faylasuf mazkur asarning boblarini «Mif to‘qib chiqarilgan uydirma emas, hayolot emas, fantastik voqea emas», «Mif hayoliy ezgulik emas». Losevning ko‘rsatishicha, mifga berilgan markscha ta‘rif barcha jihatlardan noto‘g‘ri. Uningcha, mifga mu‘jiza nuqtai nazardan yondashmoq kerak. Vaholanki, totalitar sotsializm mafkurasi mu‘jizalarni inkor etib kelgan edi. Zero mu‘jizalarning mavjudligini tan olish markscha materializmga uning dinga qarshi tabiatiga (ateizmga) zid edi. Zero, barcha dinlarda payg‘ambarlar va avliyolarning mu‘jizakorlik qobiliyati mavjudligi haqidagi g‘oyalar asosiy o‘rinni egallaydi. Masalan, Iso payg‘ambarning suv ustida cho‘kmasdan tik yurganlari hodisasi, o‘likni tiriltirganlari hodisasi va h.k. Huddi shu hodisalar islom diniy dunyoqarashida ham mu‘jizaviy hodisalar tegishli rivoyatlarda berilgan. Masalan, Muhammad payg‘ambarning sekundning yuzdan bir ulushiga to‘g‘ri keladigan lahzasi ichida ham vujudan, ham ruhan Quddusdan ibodatgohga borib qaytganlari (Me‘roj voqeasi), dushmanlari o‘ldirishga qasd qilib, qoldirganlarida ovozlari bor bo‘la turib, jisman ko‘rinmay turganlari hodisasi shular jumlasidandir. Shu kabi rivoyatlar avliyolar haqida ham ko‘plab keltirilgan. Xususan, avliyo Xo‘ja Axmad Yassaviy namoz vaqtida Bog‘dod shahrining masjidlaridan birida jamoa bilan namoz o‘qib, namozdan so‘ng o‘z yurtlariga qaytganlari haqidagi rivoyat va h.k.

Mo‘jizalarning realligini tekshirmay, netmay, quruq inkor etish markscha materializmning kamchiligi edi. Hozirgi kunda ushbu masalaga bu qadar yuzaki va skeptik ravishda yondashuv maqsadga muvofiq emas. Qolaversa, miflarda, rivoyatlarda ko‘p xollarda oddiy ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan, oddiy quloq bilan eshitib bulmaydigan, xullas insonning oddiy sezgi organlari va aqli orqali qabullab bo‘lmaydigan reallik haqida ramzlar vositasida hikoya qilinadi. Vaholanki, materialist sezgi va aql orqali qabullanmaydigan narsalarning realligini aslo tan olmaydi. Zero, uning uchun o‘zining sezgi organlari va aqlidan buyukroq qobiliyat yo‘q. Fikrimizni yaxshiroq tushuntirish uchun Farididdin Attorning «Go‘zal shoh hikoyasiga»ga murojaat etamiz. Hikoyat keltirishimiz etish mumkin. Boshqa misollar ham ko‘p.

Bir so‘z bilan aytganda majozlarda, ramzlarda ifodalangan mifologik hodisaning ertak emas, real ekani A.Navoiy tomonidan «Ayni haqiqatdir majoz» degan so‘zlarida juda aniq ifodalangan. Shu ma'noda, Attor asaridagi obrazlar ham ramzlar orqali ifodalangan haqiqatdir. Xususan, go‘zal shoh obrazi Xudoning ramzidir. Surat esa moddiy borliq, ko‘plik, xilma-xil narsalar olami. Oyna–inson qalbi. Inson o‘z qalbiga qarasa,

Ollahning aksini ko'ra oladi. Surat va Semurg' (go'zal shox) uzviy birikadi.

Shunday qilib, totalitar tuzim davridayoq miqlarga boshqacha, mafkuraga tamoman qarama-qarshi qarashlar shakllangan ekan. Lekin bu qarashlar mafkura tufayli keng yorilmadi.

Hozirgi davrda mifologik dunyoqarashga boshqacha yondoshuv zarurati. Bugungi kunda biz miqlarga boshqacha yondashuv imkoniyatiga egamiz. Lekin shunga qaramasdan ushbu masalaga (falsafaning boshqa ko'plab masalalari kabi) dogmatik yondashuv saqlanib turibdi. Buning sababi endilikda mafkura emas, balki avvalo ongimizning yangilanishga hali tayyor bo'lmaganda; ikkinchi muhim sababi shundaki, mifologiya biz ilgari o'ylaganimizday oddiy ertak, ermak emas, juda murakkab ma'naviy qadriyatdir. Uning ramziy-simvolik tabiati shundan dalolat beradi. Shuningdek, mifologiyani to'g'ri tushunish mo'jizaning tabiatini ham anglashni taqazo etadi. Vaholanki, materializmga moslashgan bizning aqlimiz mu'jizalar realligini inkor etib kelgan. Ongimizda materializmning qarshiligini engib chiqish uchun bizning oddiy sezgilarimiz, aqlimizdan buyukroq qobiliyat egalari borligini, hususan, payg'ambarlar va avliyolar shunday qobiliyat egalari bo'lganliklarini tushunish darajasiga etishimiz kerak.

Materialistik (moddaparastli) va ateistik (xudoning mavjudligini inkor etish) hamda dinga qarama-qarshi nuqtai nazarning ifodasi sifatida markscha dunyoqarash mifologik dunyoqarashning asl mohiyatini, ma'no va ahamiyatini bilishga intilmagani va uni bilishga yul qo'ymagani o'z vaqtida tabiiy edi. Lekin yurtimiz, ma'naviyatimiz ozod va mustaqil bo'lgan ushbu kunda o'sha eski tushunchalarda qotib turishimiz hozir ham manqurtlikdan qutula olmaganimizni, hamon marks ta'limotiga dogmatik e'tiqodimiz saqlanib turganini bildiradi.

Vaholanki, mifologiyaga nisbatan boshqacha yondashuvni rus mutafakkiri A.F. Losevgina namoyon etgan emas. Shu kabi qarashlar G'arb dunyoqarashida ancha oldinroq vujudga kelgan edi. Bugungi kunda esa bunday qarashlar G'arb ma'naviyatida asosan qaror topib bo'lgan.

Miqlarga nisbatan moddiyuncha qarash G'arbda ham o'tgan asrlar mobaynida keng avj olgan edi. Ya'ni fan, ilmiy bilimlar mu'jizaviy xodisalarni rad etadi, fan tasdiqlamaydigan har qanday xodisa faqat hayoliy narsa degan tushuncha ikki-uch asr mobaynida hukm surgan edi. Lekin G'arbda mavjud bo'lgan erkinlik u yerda mifologiyaga nisbatan boshqacha qarashlar ertaroq tug'ilishiga olib keldi. Xususan, nemis faylasufi, ruhshunos va fiziolog olimi V.Vund (1832-1920) mifning sof

aqliy abstraktsiya emasligi masalasiga eng oldin e'tibor berganlardan edi. Vund mifning asosida kishining kundalik aqli (ongi) emas, balki ruhiyat jazabasi-muayyan holati yotadi degan fikrni oldinga surdi. Shu ma'noda miflarning vujudga kelishida aql, miya faoliyati juda kam qatnashadi, deyarli qatnashmaydi deb ko'rsatdi.

3-MAVZU: DINIY DUNYOQARASH

REJA:

- 1. Diniy dunyoqarash haqida tushuncha*
- 2. Diniy aqidalar, ularning ijobiy va salbiy jihatlari*
- 3. Dinda hurfikrlilik tamoyili*

1. Diniy dunyoqarash haqida tushuncha. Diniy dunyoqarashning markazida Xudo g'oyasi turadi. Butun borliq Xudodan kelib chiqadi va yana unga qaytadi, uning tomonidan quvvatlab turiladi va yo'q qilinadi.

Diniy dunyoqarashning tarixiy shakllari ko'p. Hozirgi kunda eng ko'p tarqalganlari xristianlik, islom, hinduizm, buddizm, yaxudiylik dinlari.

Mustaqillikkacha bo'lgan davrda buning jamiyatimiz siyosatida dinning jamiyat hayotidagi rolini, mazmunini erga urish, salbiy baholash qoidaga aylangan edi.

Ma'naviyatimiz o'tmish siyosati va mafkurasining zo'ravonligidan ozod bo'lgan kunda bu masadaga real yondashish imkoniyati vujudga keldi. Shu ma'noda eski darsliklardagi dinning ta'rifini, ya'ni din insonning tabiat kuchlari oldida ojizligi natijasi o'laroq vujudga kelgan dunyoqarash shakli degan satrlarning to'g'ri emasligini asosli ochib berish payti keldi.

Din individ va jamiyat hayotida hamisha juda katta ijobiy rol o'ynab kelgan. Din yordamida kishilar o'zligini aniqlab olish va xotirjam bo'lish imkoniyatiga ega. Ya'ni dinda uqtirilishicha, har bir odamning o'chmas, abadiy ruhiy mohiyati mavjudligi haqida ishonch beradi. Binobarin, e'tiqod inson uchun ulug' ma'naviy ne'matdir.

Diniy dunyoqarashda, xususan, uning payg'ambarlardan keyingi amaliyotida ko'plab salbiy hollar ham uchraydi. Ayniqsa, fanatiklarcha, yuzaki ishonch, boshqa e'tiqod kishilarini kofirlikda ayblashar. Ularni ta'qib etish, hatto, ularga qarshi qonuniy janglar bilan chiqish (salb yurishlari) turli hil mazhablarga ajralib ketishlar va shu mazhablar orasida murosasiz kelishmovchiliklar borlishigi shulardan darak beradi.

- 2. Diniy aqidalar, ularning ijobiy va salbiy jihatlari.*

Biron din yoki mazhabda bayon etilgan aqidalarnigina tan olib, boshqa din va mazhablarni inkor etish diniy aqidaparastlik deb ataladi. Bu hol dinni yuzaki bilishdan kelib chiqadi va aksariyat jamiyatda kuchli ziddiyat va fojealarni keltirib chiqaradi. Muayyan bir din, mazhabgagina berilish siyosiy tashkilotlarga birlashib, o'ta mutaassiblik xarakteriga aylanib ketishi diniy ekstremizmni keltirib chiqaradi. Bu hol nafaqat bu harakatga adashib qo'shilib qolganlarga ham, boshqa oddiy insonlarga ham, hatto dinning o'ziga ham zarar keltirdi. Diniy ekstremizmning maqsadi–dinni niqob qilib, hokimiyatni qo'lga olishdan iborat bo'lib, bunda diniy talablar vosita qilib olinadi. Vaholanki, dinning eng asosiy qoidasi boshqalarni bir dinga sig'inishga majbur etish emas, balki, har bir inson e'tiqodi – bu ko'ngil ishi, ixtiyoriy ekani nazardan soqit qilinadi. Uning murakkab hodisa ekanini ko'rsatadi. Uning asl tabiatini o'rganishga chin mayl va sharoit bo'lmagan davrlarda uni goh erga urish, goh ko'klarga qo'tarish hollari sodir bo'lib turgan va bu tabiiy edi.

Har qanday ta'limotni, g'oyani, bilimni baholashda shu kungacha insoniyat ma'naviy – madaniyati erishgan 3 toifa nuqtai nazaridan baholash mumkin. Din kabi murakkab hodisani ham shu jihatdan o'rganishga harakat qilib ko'raylik.

O'rtachilikni yoqtiradigan, yuksak marralar bilan mutlaqo ishi yo'q odamlarni nazarda tutamiz. Odatda, ushbu toifani boshqarish kerak bo'ladi. Uni keyingi toifa ya'ni “aqliy ong” egalari boshqaradilar.

3. Dinda hurfikrlilik tamoyili. Dinda ratsional bilim xosil qilish bilan hamma ham shug'ullana olmaydi, faqat bir qism odamlar–ulamo-olimlar shug'ullanadilar. Borliqni ruhiy (irratsional) anglaydigan uchinchi toifadagilar juda noyob. Ularning ilmini oddiy odamlar uchun tushunishi qiyin bo'lgani uchun sirli, ya'ni mistik bilim (mistika) deb ham ataladi.

Xo'sh, diniy dunyoqarash shu toifalardan qaysi biriga taalluqli va uni qanday tushunsa bo'ladi?

Diniy bilimni anglashning birinchi, ommaviy bosqichini (darajasini) noongli, rasmiy anglash sifatida nazardan soqit qilsak, diniy dunyoqarash mazmunida asosan, faqat 2 tamoyil borligini ko'ramiz. Bulardan biri nimalar qilish kerakligini o'rgatadi. Dinning bu mazmunidan hamma bahramand bo'la oldi, lekin vaqt o'tib borishi mobaynida uning asl ma'nosi buzilib, asl ma'nosidan uzoqlashib ketishi mumkin. Ikkinchisi haqiqatga qanday erishish kerakligi maxsus maktablarda sirli o'rgatadi. Shunday bilimlar yordamida birinchi qismda buzilgan mazmunni tuzatib turish yoki yoddan ko'tarilgan jihatlarni qayta tiklab turish mumkin. Ikkinchi qism bo'lmasa, din o'z mohiyatidan uzoqlashib ketadi.

Ilmiy–falsafiy adabiyotlarda birinchisi ezoterik, aqlga asoslanadigan (ratsional, intellektual) tamoyil deb, ikkinchisini ezoterik, ya'ni ruhiyatga asoslangan (ratsionallik darajasidan yuqori bo'lgan, nointellektual) tamoyil deb ataladi. Soʻfiylar birinchisini “ilmi qol”, ikkinchisini “ilmi hol” deydi. Maxsus ilmiy adabiyotda esa birinchisini “ortodoksal”, ikkinchisini “noortodoksal” tamoyil deb atashadi. Bunda “ortodoksal” soʻzi yunoncha “orthos” “toʻppa–toʻgʻri” soʻzidan olingan. Bu tamoyil tobora dinning har bir qarorini qonunga aylantirib, shaklan qotirib saqlash bilangina shugʻullanadi.

Shunday qilib, umuman diniy dunyoqarash asosida buyuk ma'naviy qadriyatdir. Lekin juda murakkab hodisa bo'lgani uchun uni asl mohiyatini tushunish qiyin. Ana shu qiyinchilik koʻp hollarda dinga yo inkoriy yondashish, yo fanatik berilishini keltirib chiqaradi.

Birinchi dinni ijtimoiy hayotdan siqib chiqarishga bo'lgan amaliy choralarni keltirib chiqargan bo'lsa, ikkinchisi dinning «dushmanlarini» bilib–bilmay yoʻq qilishga bo'lgan jangu–jadallarga undaydi. Bugungi kunda bularning har ikkisi ham oʻta zararlidir. Har ikkala tamoyildan qutulmoqning eng samarali vositasi dinga hurfikrlilik, ya'ni uchinchi daraja nuqtai nazaridan yondashganlarga ta'limoti bilishga intilmoqdir.

Dinda ratsional bilim hosil qilish bilan hamma ham shugʻullana olmaydi, faqat bir qism odamlar–ulamolar shugʻullanadilar. Borliqni ruhiy–irratsional anglaydigan uchinchi toifadagilar juda noyob. Ularning ilmiyni oddiy odamlar uchun tushunish qiyin bo'lgani uchun sirli, ya'ni mistik bilim (mistika) deb ataladi.

Xoʻsh, diniy dunyoqarash shu toifalardan qaysi biriga taalluqli va uni qanday tushunsa boʻladi?

Diniy bilimni anglshaning birinchi, ommaviy bosqichini (darajasini) nongli, rasmiy anglash sifatda nazardan soqit qilsak, diniy dunyoqarash mazmunida asosan faqat 2 tamoyil mavjuddir. Bulardan biri nimalar olish kerakligini oʻrgatadi. Dinning bu mazmunidan hamma bahramand boʻla oladim, lekin vaqt oʻtib borishi mobaynida uning asl ma'nosi buzilib, asl ma'nosidan uzoqlashib ketishi mumkin. Ikkinchisi haqiqatga qanday erishi kerakligini maxsus maktablarda sirli oʻrgatilgan. Shunday bilim yordamida birinchi qismda buzilgan mazmunni tuzatib turish yoki yoddan koʻtarilgan jihatlarni qayta tiklab turish mumkin. Ikkinchi qism boʻlmasa, din oʻz mohiyatidan uzoqlashib ketadi.

4- MAVZU: ILMIY DUNYOQARASH REJA:

1. *Fan haqida tushuncha*
2. *Fanning kelib chiqishi shart-sharoitlari*
3. *Ilmiy dunyoqarashning o'ziga xosligi, uning yutuq va kamchiliklari*

1. Fan haqida tushuncha. Fan (tashqi) dunyoni aqliy (ratsional) bilishning oliy (nazariy) shaklidir. Aqliy bilishning quyi shakli-farosat, ya'ni kundalik idrok hisoblanadi.

Fan o'zining kelib chiqishi va rivojlanishida, bir tomondan farosat va tajribalarga, ikkinchi tomondan mustaqil mantiqiy evolyutsiyaga tayanadi. Boshqacha aytganda, fanga quyidagicha ta'rif berish mumkin; Fan-tashqi dunyo haqida ob'ektiv bilimlar hosil qilish va ularni tartiblashtirish bilan shug'ullanuvchi ratsional faoliyat shaklidir.

Fan o'z faoliyatida mantiq va faktlar bilan ish ko'radi. Mantiq-bu to'g'ri, izchil tartibda fikr yuritishni anglatadi. Mantiqiy tafakkur chiziqli anglash hisoblanadi. O'z o'rnida mantiq sof va amaliy qismlarga bo'linadi. Sof mantiq-tushunchalarni ta'riflash, fikrlarni isbotlash, uslublar haqidagi ta'limotdir. Amaliy mantiq-muayyan fan aksiomalar, tushunchalari, hukm va xulosalaridan iborat.

Fakt - ro'y bergan hodisa, amalga oshgan ishni ifodalaydigan mantiqiy tushuncha bo'lib, unda sub'ektivlik qonunlari ustuvor bo'ladi. Masalan, YYEr sharining shar shaklida ekanligi-fakt. Suyuqlikka (gazga ham) botirilgan har qanday jism uni yuqoriga itaradigan va og'irligi u tomonidan siqib chiqariladigan suyuqlik miqdoriga teng bo'lgan kuch ta'sir etadi. Bunda qonun fakt vazifasini bajaradi.

Fan tarixini o'rganuvchi olimlarning tasdiqlashlariga ko'ra, fan borliqni maxsus o'rganish samarasi o'larok vujudga kelgan. Ya'ni fan kelib chiqishidan oldin dunyoni yaxlit bilish shakllari mavjud bo'lgan, bu mifologiya, din, falsafa. Fan esa dunyoni turli qirralarga bo'lib ayrimlikda o'rganish bilan shug'ullanadigan faoliyat sohasidir. Shu ma'nodan fan dastlab borliqni tahliliy (analitik) o'rganadigan bilim sohasi sifatida shakllandi. Masalan, avval yaxlit bo'lgan bilimlardan dastlab astronomiya, geometriya, arifmetika, mexanika kelib chiqdi, XIX asr o'rtalarida biologiya, ximiya va jamiyat haqidagi fanlar ajralib chiqdi. Dunyo haqidagi dastlabki, yaxlit bilimning sohalarga ajralib ketishi-bilimning differentsiallasuvi deb yuritiladi. Dastlab olimlar qomusiy bo'lganlar, keyin esa bu barham topib, differentsiallasuv yanada kuchaygan.

Shuning natijasida ilmiy bilim bilan mashg'ul bo'lgan olimlar orasida mehnat taqsimoti vujudga kelgan. Qomusiylik esa juda noyob holga aylangan. Umumiyatni o'rganish bilan shug'ullanuvchi, xususiy ilm sohalarida faoliyat bajaruvchilar orasida keskin ajralish sodir bo'ldi. Natijada, umumiyatni, yaxlitlikni biladiganlar ayrimlikni bilmasligi, ayrimlikni biladiganlar esa umumiyatni bilmasligiga olib keldi. (Fil haqidagi hikoya, umumiyat haqidagi bilim bo'lgan falsafani safсата deb hisoblash, uning kerakligini inkor etish-pozitivizm).

Buning ustiga, fanni har bir sohalarining o'z ichida differensiallashuv sodir bo'lib, buning natijasida mayda soha mutaxassisleri paydo bo'ldi va ular boshqa sohalarni tushuna olmasligi ob'ektiv va sub'ektiv holatga aylanib bordi.

Fanning kelib chiqishi shart-sharoitlari. Insoniyatning hozirgi ongi umuman olganda, eski sivilizatsiyadan qolgan buyuk yutuqlarni ham, fan sifatida yangidan shakllangan yutuqlarni ham o'zida jo etadi deyish mumkin. Masalan, bu ezoterik falsafa (xususan, tasavvuf ta'limoti) aslida bitta buyuk ilm bor. Bu Xudoga xos bo'lgan buyuk yaxlit Hikmat bo'lib, oddiy odamlarga, hatto buyuk payg'ambarlarga ham muqaddas kitoblar orqali ularning faqat bir qismi beriladi, nozil etiladi.

Falsafa tarixining guvohlik berishiga ko'ra ham Hikmat «falsafa» deb ataladigan yaxlit bilim bo'lgan. Shu falsafa bir vaqtning o'zida ham mistik-mifologik mazmuni, ham diniy (Xudo bilan bog'lanishga xos) mazmuni, ham aqliy bilimlarni o'z ichiga qamrab olgan. Maxsus fanlar shu yaxlit bilimlar ajralib chiqqanlar (differensiallashuv). Nemis faylasufi Gegel ta'limotida ham shu fikr namoyon bo'ladi; tezis–antitezis-sintez.

Fan-dunyoni ob'yektiv (sub'yektiv) nazariy bilishga asoslangan dunyoqarash sifatida dunyoqarashning boshqa shakllaridan quyidagilar bilan farqlanadi;

Ob'yektiv

Tashqariga yunalgan (makrokosmni, materiyani bilish kabilar)

Faktlarga tayanadi

Mantiqqa tayanadi

Analitik ehtiyojlar birlamchi turadi

Aniq ish ko'radi (ko'rinadigan, seziladigan borliqni aql bilan idrok etadi, mantiqiy tushunchalar va qonunlarga tayanadi)

Xususiy bilimlar ishlab chiqadi va h.k.

Sh ubilan bir qatorda kamchiliklar ham mustasno emas, jumladan;

Sub'yektiv emas

Ichkariga, ya'ni o'z - o'zini bilishga qaratilmagan

G'ayb olami bilan bog'lanmagan
Ruhiy ehtiyojlar ustuvor emas
Majoz, obrazlardan foydalanilmaydi
Umumiylik miqyosi, darajasi tor va qisqa kabilar.

Umuman, fan inson va jamiyat evolyutsiyasida juda katta salmoqqa ega bo'ladi va hamon shunday bo'lib qolmoqda. Fanning erishgan juda yuqori marralari eng oddiy er o'lchash, kasalliklarni davolash, tabiat hodisalarini tasvirlash darajasidan to hozirgi davrda klonlashtirishga borib yetadi. Hozirgi sivilizatsiya asosan, fan yaratgan sivilizatsiyadir.

Bular barchasi fanning obro'-e'tiborini ta'minlaydi. Shuning uchun ham XX asr-ilmu fan davri bo'ldi. Ilmiy dunyoqarash dunyoqarashning boshqa shakllaridan ustuvorligini namoyon etadi. Siyosat ham ilmiy mafkuraga asoslanadigan bo'ldi. Xatto, falsafa, gumanitar fanlarning ham ratsionallashuvi sodir bo'ldi.

Siyosat, falsafa, ruhiyat-barchasida aqliy munosabat ustuvorligi keng tus oldi, jumladan, hisob-kitob bo'yicha, shartnomaviy turmush qurish, kompyuter orqali tanishuv asosida dunyoga kelgan muhabbat-bularning barchasi ilmiy dunyoqarash miqyosining yanada kengayganligidan dalolat beradi. His-tuyg'u, ular bilan bog'liq psixologik kechinmalar noratsional bo'lganligi uchun o'zining asl mazmunidan yiroqlasha boshladi va nazardan qoldi.

Shu bilan birga, fanning taraqqiyotida faqat ijobiy emas, salbiy xodisalar ham kuzatildi va kuzatilmoqda. Jumladan:

Fan va uning amaliy shakli bo'lgan texnika va ilmiy dunyoqarash bilan qurollangan sivilizatsiya YYEr yuzidagi hilma-hil hayot shakllarining mavjud bo'lish imkoniyatini tobora cheklab bormoqda. Sichqon, fil, chivin, odamlar kabi barcha tirik mavjudotlar avlodlar almashinuvi tarzida yashash maqsadiga ega. Buning oqibatida tabiatning qonuniyatli o'zaro bog'liqligi, muvozanatiga putur yetmoqda. Texnika sohasi biosferani batamom yutib yubormoqda, endigi navbat esa odamning o'ziga etib keldi.

YYEr, suv, havo (ekinlar) ifloslanishi, ozon himoya qatlaminin yorilishi va kengayib borayotganligi, umuman, YYEr yuzidagi bio-ekologik hayot havf ostida. Eksperimental meditsina tabiat nafaqat insonning yashash joyi edi, balki ozuqa manebai, dori-darmon toza havo manbai ham edi (YYErning o'pkasi edi). Yozuvchilar ko'pdan beri fan-texnika taraqqiyoti tufayli vayron bo'lgan tabiat taqdiri haqida bong urishmoqda. Har bir giyoh, daraxt, hayvon taqdiriga achinmoqda. Xalqaro nodavlat tashkiloti sifatida faoliyat yuritayotgan Rim klubi 60-yillardan

buyon YERdagi hayotning barcha sharoitlarini jiddiy o'rganishni o'z zimmasiga olgan. Bu tashkilot 60-yillardan boshlab YERdagi axoli soni, tabiati, resurslari, atrof- muhitning bulg'anishi, kishi boshiga bir yil uchun ketadigan oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari miqdorini o'lchash, ularni ilmiy tahlil qilish bilan shug'ullanadilar. Foydali qazilmalar, energiya zahiralari 20-30 yillarga kelib tezlik bilan halokatli vaziyatlarni keltirib chiqarishi bashorat qilmoqda.

3. Texnika taraqqiyoti insonni nafaqat jismoniy, balki sog'ligini inqirozga olib kelishi faqat tabiatga salbiy ta'sir orqali yetkazilmayapti, balki bevosita sodir bulyapti. Muskul kuchlari, aqliy gimnastika o'rniga texnika bu o'rinlarni zabt etmoqda. Avtomatlar, robotlar, kompyuterlar tobora inson hayotiga ham jismonan, ham aqlan tajovuz qilib bormoqda.

4. Energiya, suv, tuprok, havo, foydali qazilmalar tabiiylikiga putur etib kamayib ketgan. O'z navbatida iqtisodiy, siyosiy, axloqiy inqirozlar keskinlashuvi kuzatilmoqda.

5. Aqliy (ratsional) bilimlagina mutloq e'tibor kuchayib, ruhiyat (ma'naviyat)ga e'tiborning siqib qo'yilishi oqibatida inson evolyutsiyasida to'xtalish, ya'ni insoniy tuyg'ularning emirilishi sodir bo'lmoqda.

Ilmiy dunyoqarashning o'ziga xosligi, uning yutuq va kamchiliklari.

Ba'zi zamonaviy mutafakkirlarning ta'kidlashiga ko'ra, fanning texnikaviy taraqqiyot yo'lining boshi berk (tupik). Aslida inson evolyutsiyasi boshqa o'zgacha yo'ldan borishi kerak. Bu yo'lda Atlantida, Nux a.s. davridagi kabi halokat (magnit qutblarini o'zgarishi) kuzatilishi mumkin.

Nemis faylasufi I.Kant fan ikki kasallikka muhtalo ekanligini qayd etadi;

Fan gorizontining (ufqlarining) torligi, tafakkur (aql)ning biryoqlamaligi

Uning maqtugulik (arzigulik maqsadga emasligi)

Fan ufqlarining torligi shundaki, insonning sezgi organlari cheklangani kabi, aqliy faoliyat imkoniyatlari ham cheklangan, o'jiz.

Turli asboblar yordamida bu texnikaviy aqliy (kompyuterni) takomillashtirishga qaramay, u bari-bir cheklanganicha qoladi. Chunki bu payg'ambar ongi quvvati emas. Fan nari borsa faktlar to'plab, ularni tartiblashtirib, ular haqida umumiy hulosalar chiqarish bilan shug'ullanadi.

Aql o'z tabiatiga ko'ra ajratish bilan shug'ullanadi, shuning uchun umumiyatni, mohiyatni ko'ra olmaydi. Ko'rganida ham, juda tor doira amal qiladigan, yuzaki konunlarni kashf etadi, teran, chuqur mohiyatlarni emas. Chunki, inson evolyutsiyasining bosqichlaridan biri bo'lgan aqlning

bosh vazifasi o‘zining yashashi (saqlanishi) uchun bo‘lgan tabiatdan o‘zini ajratish edi. Bu ajratish vazifasini u zo‘r berib rivojlantirdi (har yoqlama) insonni tabiatdan, koinotdan, dindan, mifdan, bir-biridan ma‘lum ma‘noda ajratishga muvaffaq buldi. Bu esa butun borliq uchun birdan umumiy bo‘lgan chuqur haqiqatni bilishga olib kelmasligi rost.

Ilmiy bilimlarning nazariylashuvida matematikaning roli muhim. Zero, barcha fanlar orasida matematika sof konkret faoliyat bilan shug‘ullanadi. Shuning uchun fanlarning nazariylashuvi ularning matematikalashuvi darajasi bilan belgilanadi. Masalan, fizika V*SG`2 matematikalashgan. Boshqa fanlarda ham shunday jarayonlar kuzatilmoqda va uning natijasida juda ko‘p fan sohalarida nazariylashuv avj olgan. Hozirgi kunda fan taraqqiyotining asosiy tamoyillari quyidagi sabablarga ko‘ra farqlanadi:

Differentsiallashuv;

Matematikalashuv (nazariylashuv, ya'ni aqliy faoliyatning oliy bosqichga ko‘tarilishi);

Integrallashuv;

Ekologiyalashuv (Yashillar partiyasi, EKOSAN);

Gumanitarlashuv (sinergetika).

So‘nggi ikkita tamoyil hali mukammal shakllanmagan, faqat orzu darajasida. Bu orzuga yetishmoq uchun hali fan sohasida ko‘plab ishlarni amalga oshirish zarur. Buning uchun fan dunyoqarashning boshqa shakllari bilan faol munosabatlarni yo‘lga qo‘yib, vaziyatni uyg‘unlashtirishi lozim.

5-MAVZU:

FALSAFA – QADIMIY DONISHMANDLIK

REJA:

1. Donishmandlik va muhabbat – falsafaning ikki asosiy jihati

2. Falsafaning qadimiyligi masalasi

3. Donishmandlik va muhabbat – falsafaning ikki asosiy jihati.

1. Donishmandlik va muhabbat – falsafaning ikki asosiy jihati.

Avvalo, «filosofiya» atamasining ma‘nosiga e‘tibor beraylik. Bu atamani yunon faylasufi Pifagor birinchi bo‘lib kiritgan va lug‘aviy ma‘nosi ikki tushunchaning birikuvidan tashkil topadi: «filo»–muhabbat, «sofiya» – hikmat, donishmandlik.

“Donishmandlik”, “hikmat” atamasini kundalik ong darajasidan turib tushunish qiyin. Kundalik ongda “donishmand” deyilganda og‘ir–vazmin, bosiq tabiatli, mehr–muruvvatli, turmushning har qanday tashvish va g‘alvalari oldida dovdirab qolmaydigan odam tushuniladi. Va odatda,

hayotimizda shunday odamlardan maslahat soʻraymiz, yoʻl-koʻrsatmalaridan bahramand boʻlishni istaymiz. Lekin bu ogʻirlik, vazminlik, mehr–muruvvatlilik qanday shakllanishini bilmaymiz. Gyotening (1749-1932) aytishiga koʻra: «Goʻdak oʻzini qurshab turgan voqe–dunyoga sofdillik bilan qaraydi. Oʻzini unga ishonib topshiradi. Yosh yigit esa, unga oʻz ehtirolari orqali qaraydi. U oʻzini boshqarishi kerak, aks holda uni ehtirolari adashtirishi mumkin. YEtuk yoshdagi kishi har bitta harakatini tekshiruvdan oʻtkazib bajarishga, skeptitsizmga moyil boʻladi, adashishdan qoʻrqadi. Shuning uchun uning fikrlari juda oʻzgaruvchan boʻladi. Qari odam esa, odatda koʻproq ruhiy tajribaga moyil boʻladi. U aql bovar qilmas hodisalarning sodir boʻlishini, va aksincha aql bovar qiladigan hodisalarning barbod boʻlishini koʻra oladi. U baxt va baxtsizlik kutilmaganda bir–biri bilan almashinib, bir–birini muvozanatga solishini kuzata oladi”.

Bu haqida donishmandlarning oʻzlari, masalan, Qadimgi yunon faylasufi Geraklit nima deganini koʻraylik. Uning uqtirishiga koʻra: “Koʻp narsani bilish hali donishmand boʻlish emasdir”, Platon esa donishmandlikning mohiyatini bilishda deb hisoblagan. Boshqa yunon donishmandi, Platonning shogirdi Aristotel donishmand odamni quyidagi belgilarga koʻra ajratadi: birinchidan deydi u, -donishmand garchi, har bir ayrim olingan narsalarning barcha ikir–chikirlari emas, iloji boricha hamma narsani biladigan odamdir. Ikkinchidan, odamlar uchun qiyin oson bilish mumkin boʻlmagan narsalarni biladigan odamlarni donishmand deymiz.

Shunga koʻra, donishmand boʻlishni istagan odam hamma narsani ikir-chikirlaridan emas, balki hamma narsaning asosida yotadigan, kishini hayratga soladigan narsalarni bilgisi keladigan odamdir. Bunday savollar esa, koʻp va kishini juda band qiladi. Shuning uchun bu yoʻlga kirgan odam kundalik ikir – chikirlar bilan hayolini band qila olmaydi. Faylasuflik yoʻli koʻp va chuqur bilishga intilishdan boshlanadi. Uning bilishdan maqsadi ham boshqalarnikidan farqlanadi. Uning bilishdan maqsadi–bu bilimdan bevosita foydalanish emas, amal yoki shuhrat qozonish emas, balki dunyo siriga dohil boʻlishdir.

2. Falsafaning qadimiyligi masalasi. Falsafa axloqiylikdan ham oliyroq maʼnaviy qadriyatdir. Chunki, faylasuf uchun muhimi yaxshini yomondan ajratish emas, balki, bilimni nodonlikdan, jaholatdan ham ajratishdir. Zero, barcha yomonlik, donishmand nazdida bilimsizlik oqibatidir. Bilimsiz nodonlarni yaxshilikka oʻratib boʻlmaydi, deb hisoblaydi faylasuflar. Ikkinchi tomondan, donishmandlik bilimning

o‘zidan ham iborat emas. Balki barcha odamlarga, yaxshi–yomonni ham mehr–muhabbat bilan qaray bilishdir.

Demak, donishmandlik faqatgina bilim, bilimning o‘zidagina emas, balki ko‘proq o‘z bilimlarini qanday qo‘llash kerakligini axloqiy baholay oladigan, odamlar va to‘rt tabiatga hamdardlik qila oladigan odam hamdir. Bu ta’rifdan donishmand bilan olim orasidagi farq yaqqol ko‘rinadi. Ya’ni olim biror kashfiyot qilsa, u bu kashfiyoti odamlarga qanchalik foyda yoki zarar keltirishidan ko‘ra ko‘proq bu kashfiyot o‘ziga nima berishini o‘ylaydi.

Eng qadimgi falsafa mifologiyadan ayrim bo‘lgan emas. Mifologiyada dunyo majoz (ramz)larda ifodalangan. U bilim sifatida Odam Atodan Muhammad s.a.v. ga qadar mavjud bo‘lib kelgan. Xususan, Gegel shunday yozadi: “Sharqda, ayniqsa, Hindistonda G‘arbdagi kabi oliy Haqiqatning tabiatini intellekt orqali aniqlashga harakat qilganlar. Lekin, ular birinchidan, intellektni Haqiqatni kashf etishning eng yaxshi quroli darajasiga ko‘tarilgan emaslar, balki uni ikkinchi o‘ringa qo‘yganlar. Birmchi o‘rinni esa ular hamisha ruhiy intuitsiya va ishroqqa (vahiy yordamida yorishuv) ruhiy (psixologik) tajribaga tegishli deb hisoblaganlar. Shu oliy kashfga bilimga zid keladigan har qanday intellektual xulosani haqiqiy emas”, deb hisoblagan. Ikkinchidan, bu yerdagi har bir falsafiy ta’limot ongning oliy holatiga erishuv amaliyoti (meditatsiya) bilan qurollangan bo‘lgan. Shuning uchun, garchi ish fikrlash jarayonidan boshlangan taqdirda ham, maqsad aqlgan asoslangan tafakkur doirasida tashqariga chiqadigan holga erishuvdan iborat bo‘lgan. Har qaysi falsafaning asoschisi (va ularning izdoshlari) bir vaqtning o‘zida mutafakkir–Yogin (avliyo) sifatlarini o‘zida mujassam etib kelgan. Faqatgina intellektual faylasuflar o‘qimishli bo‘lganliklari uchun hurmatga sazovor bo‘lgan. Lekin hech qachon Haqqa erishganlar darajasiga qo‘yilgan emas. Ruhiy tajribaga erishish uchun yetarli quvvatga ega bo‘lmagan falsafiy ta’limotlar o‘limga yuz tutuganlar, tarixga aylanganlar...”. G‘arbda esa , aksincha ... Bu erda yana shuni alohida ta’kidlash kerakki, yunon falsafasi ham quruq yerda vujudga kelgan emas. Qadimgi yunon faylasuflari Geraklit, Pifagor, Suqrot, Platon va boshqalar “hol”ga erishuv orqali haqqa yetishgan donishmandlar ekanini tasdiqlaydigan hujjatlar bor.

Demak, faylasuflar ham “ruhiy tajriba” bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Hazrati Muhammad s.a.v. ham Hiro g‘orida 30 kun ro‘za tutib birinchi vahiy kelganida shunday oliy “hol” darajasida bo‘lganlar.

Shunday “hol” (yoki vahiy)ga yetishuv uchun vosita bo‘ladigan muraqaba (meditatsiya) ruhiy tajribasi juda qadimiy va hamon juda yoshdir.

3. Donishmandlik va muhabbat – falsafaning ikki asosiy jihati. Biz o‘tmish mafkurasi davrida YEropa falsafasi Yunon–Rim sivilizatsiyasidan boshlangan deb ishonib keldik. Toki, XIX asrga kelib O.Shpengler “YEropa halokati” asarini yozsa hamki, butun YEropaning o‘zi qadimgi yunon sivilizatsiyasi, madaniyatidan oldin ham ko‘plab buyuk sivilizatsiyalar mavjud bo‘lganini tan olinayotgan va hozirgi davr olimlari ham oldingi sivilizatsiya qoldiqlaridan izlab topib borayotgan va Platonning “Atlantida” haqidagi hikoyasi fantaziya emasligi ma'lum bo‘lsa hamki, hamon falsafa tarixni yunon sivilizatsiyasidan boshlash hollari ko‘p uchraydi. Vaholanki, nemis falsafa tarixchisi O.Shpenglerdan (1880-1936) oldinroq yashagan ezoterizm namoyondasi E.P. Blavatskaya (1831-1891) shunday yozgan edi: “Sivilizatsiya mavjud bo‘lgan deb hisoblanadigan har bir qadimgi mamlakatda donishmandlik deb ataladigan bilim tizimi, ezoterik doktrinalardagina mavjud bo‘lgan...”.

Bolqon yarim oroliga Hindistondan kelgan Orfey ta'limoti yerda shakllangan va rivojlangan ko‘p falsafiy maktablar uchun manba bo‘lgan ekan. Yangiplatonchi Plotin (204-270)ning ustoz, ikkinchi asrda yashab o‘tgan Ammoniy Saksning fikriga ko‘ra, donishmandlik dinining sirli ta'limoti Germes kitobida to‘laligicha bor. Pifagor va Platon o‘z bilimlarini o‘sha kitobdan olganlar. Bu ta'limot esa Sharq donishmandligi bilan aynan birdir.

Donishmandlikning tabiati va qadimiyligi tasavvuf mashhur shayxlaridan biri Suhravardiy tomonidan shunday ochiladi. Uning tushuntirishiga ko‘ra: «To‘liq (chuqur) va haqiqiy bilim bo‘lgan ishroq (Nurlanish) nafsni tiyish va zikr orqali erishiladigan bilim bo‘lib, qadimgi yunonlar bu bilimni Hudoning (Zevsning) o‘g‘li deb hisoblaganlar. Xermes osmondan olgan va bu bilim yunon, arab va Eron donishmandlari bir–birlaridan olib turgan bilimning o‘zidir .

Shunday qilib, ezoterik (sirli, mistik, osmondan olinadigan) bilim sifatida ilohiy hikmatning tarixi juda qadimiydir. Uning manbai ilohiyotning o‘ziga borib taqaladi. Shuning uchun uni mana bu davrda vujudga keldi deb ko‘rsatish qiyin. Lekin, inson vahiyatga erishgandan buyon bu ilm bor deyish mumkin. Vahiylik esa Odam Atodan Muhammad s.a.v.gacha mavjud bo‘lib kelgan.

6- MAVZU:
FALSAFA TARIXI QADIMIY DONISHMANDLIKNING
INVOLYUTSIYASI VA UMUMINSONIY ONGNING EVOLYUTSIYASI
JARAYONI SIFATIDA

REJA:

1. *Qadimiy donishmandlikning differentsiallashuvi jarayoni*
2. *Falsafaning predmeti va vazifalarining tarixan o'zgarib borishi*
3. *Differentsiallashuvining qonuniyatli tabiati haqidagi nuqtai nazarlar*

Qadimiy donishmandlikning differentsiallashuvi jarayoni. Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda barcha dunyoqarash shakllaridan oldin mavjud bo'lgan yaxlit donishmandlikni «Falsafa muqaddimasi» («predfilosofiya») deb ataladi. Ushbu «Muqaddima» bora-bora turli shakllarga ajralib ketdi. Undan avvalo adabiy-badiiy (ya'ni simvolik, mifologik), keyin diniy, keyin esa falsafiy-nazariy dunyoqarashlar ajraladi.

Bizga etib kelgan eng qadimiy adabiy-badiiy (mifologik) dunyoqarashga oid asarlar Qadimgi Sharqda Xitoy, Hindiston, Shumer (Babil), Misr va Qadimgi G'arbda (Sharqiy O'rta YEr dengizi bo'ylari mamlakatlar, Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rimda) miloddan uch ming yil oldin yaratilgan deb tahlil qilinadi. Ana shu asarlarda dunyoqarashga oid eng chuqur masalalar inson hayotining ma'no va mohiyati, inson umrining o'tkinchiligi, abadiyatga erishuv muammolari va h. k.- qo'yilgan erishuv muayyan ravishda yechilgan edi.

Adabiy-badiiy dunyoqarash bilan bir vaqtda, uning mazmunida diniy dunyoqarash ham, falsafiy-nazariy dunyoqarash ham, xususiy ilmlar ham birlashgan holda mavjud bo'lib kelgan edi. Keyinchalik undan diniy dunyoqarash va din falsafasi (teologiya) ajralib chiqdi. Hozirgi paytda uch ming yil oldin mifologiyaning bag'rida shakllanib, keyin mustaqil bo'lgan, keyinchalik alohida shakllangan yaxudiylik, xristianlik ham keng tanilgan. Va nihoyat, bundan 2,5 ming yil oldin, eramizdan oldin, eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda shakllangan mantiqqa asoslangan nazariy falsafa ajraldi.

Lekin bu jarayon Sharq va G'arbda bir xil kechgan emas. Qadimgi Sharq falsafasidagi mistik va nazariy mayillar uzoq vaqt birgalikda saqlanib keldi va hozirgi davrda ham uning yirik namoyondalari bor (masalan, Shri Audindo va b.) G'arbda esa Platondan boshlab, ayniqsa, va Aristoteldan keyin nazariy mayil kuchayib ketdi, mistik mayil tobora yo'qolib bordi. Bu keyingi mayilning eng keyingi kuchli namoyondalari «Yangi platonchilar» edilar. Bular: Platin, Porfiriy (Rimda), Suriyada-

Yamvlix (4 asr), Iskandariyada-Xipatiya, Nemesiya (4-5), Afinada-Prokl (5-6asrlarda) va h.k. edilar.

Sharqda IX-X asrlarda A.N. Farobiy Aristotel va Plotin gʻoyalarini islom diniy dunyoqarashi bilan boyitdi va rivojlantirdi hamda mazkur gʻoyalari saqlab Gʻarb va Sharqqa yoyilishida muxim rol oʻynadi. Falsafiy taʼlimotlarning oʻzaro taʼsiri tarixi masalalarining maxsus tahlil bilan shugʻullangan Frantsiya, AQShda va Gʻarbiy Evropada keng tanildi A.V.Koyre (1892-1964)ning oʻqitishicha lotin Gʻarbining ustozlari va tarbiyachilari deb Farobiy, Ibn Sino va Ibn Rushdlar boʻlganlar. (Koyre A.V. Ocherki istorii filosofskoy moʻsli. M. 1995. 52-53 betlar). Uning qayd etishicha, agar shu faylasuflar boʻlmaganida Aristotelning “Metofizika”, “Fizika” kabi asarlari Gʻarb uchun tushunarsizligicha qolardi.

2. Donishmandlik va muhabbat – falsafaning ikki asosiy jihati. Yaxlit falsafiy dunyoqarashdagi ushbu ajralish Aristotel asarlarining nomlarida yaqqol koʻrinadi. Masalan, uning talqinida falsafa avvalo uch turga boʻlinadi. Bunda nazariy falsafaning maqsadi bilish uchun bilish, keyingisining maqsadi-ijod qilish (yaratish) uchun bilish. Ayni zamonda bularning oʻzi ham ajraladi.

Nazariy falsafa tabiat falsafasi, matematika falsafasi va birinchi falsafaga (teologiyaga) ajraladi, amaliy falsafa-etika (ahloqshunoslik) va siyosatshunoslikka boʻlinadi, ijod falsafasi esa notiqlik san'ati va she'r yozish san'atiga boʻlinadi.

Abu Nasr Forobiy esa oʻz davri ilm (ya'ni arifmetika), oʻlchash toʻgʻrisidagi ilm (geometriya), yulduzlar toʻgʻrisidagi ilm (astronomiya), musiqa ilmi va metofizikani (xudoni bilish ilmini) ajratadi.

Aristotel davridan keyin falsafaga nisbatan oxirgi keng miqyosli qarash nemis faylasufi Georg Vilgelm Fridrix Gegel (1770-1831) falsafiy taʼlimotida uchraydi.

Uning “Falsafiy fanlar entsiklopediyasi” (T.1-3) asarining boblari falsafiy fanlar qanday qismlaridan ibratligi sotilgan.

Gegeldan keyin tabiatshunoslik ijtimoiy va ijodiy bilimlarni bu qadar toʻliq jamlangan falsafiy tizim boʻlmadi. Gegel nomini atagan koʻp fanlar Gegel davridayoq falsafadan ajralib, mustaqil boʻlib ketgan va alohida nazariy sohalar sifatida faoliyat yuritish jarayoni boshlangan edi.

Tabiatshunoslik fanlarning falsafadan keskin ajralishi XIX asrning birinchi yarmida sodir boʻldi. XX asr oxirlariga kelib ijtimoiy va gumanitar fan sohalar ham keskin ajralib ketdi, mustaqil fan sohalariga aylandi.

Bular jumlasiga ruhshunoslik (psixologiya), siyosatshunoslik, huquqshunoslik, sotsiologiya kabilar kiradi.

Hozirgi davrda esa tabiatshunoslik, ijtimoiy va gumanitar va texnikaviy fan sohalari mavjud. Bu sohalarning o'zi ham shu darajada tarmoqlanib ketganki, ularni tasniflash uchun maxsus ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, hozirgi davrda falsafa ruhshunoslik (psixologiya) kabi o'zining eng zaruriy tarkibiy qismdan ham ajralmagan. Shuning oqibatida hozirgi psixologiya ruhshunoslik ilmi emas, balki tabiatshunoslik (inson tabiatini o'rganadigan) fanlardan biriga aylangan bo'lsa, falsafa ham endi batamom o'zining asl metafizik tabiatini (qadim donishmandlik ma'nosidagi dunyoqarash mavqeini) yo'qotib, umumiy fanga aylanib qoldi.

Ushbu hol falsafaning keyinchalik fanlik sifatini ham shubha ostiga olinishi va xatto, inkor etilishiga olib keldi. Bunday g'oyaning vujudga kelishi avvalo fransuz faylasufi O.Kont (1798-1857) qarashlarida namoyon bo'lgan edi. O.Kont insoniyat tafakkurining uch bosqichi taraqqiyoti haqidagi fransuz faylasuflari J.Tyurgo (1727-1781) va Sen-Simonlarning (1760-1825) g'oyalarga asoslanib "mening ta'limotiga ko'ra, -deydi-bizning individual mushohadalarimiz ham avlodlarga taaluqli mushohadalarimiz ham muqarrar ravishda oddiy nomlar bilan atalgan uch bosqichni-teologiya, metafizika va fan - bosqichlarini birin-ketin bosib o'tishlari kerak".

Falsafaning ilmi hikmat, donishmandlik sifatidagi taqdiri masalasiga boshqacha qaraydigan faylasuflar ham bor. Masalan, Abdulvohid Ahyo tahallusini olgan frantsuz ezoterik faylasufi Rene Genon bir insoniyat tafakkurida sodir bo'lgan bu tarixiy jarayonni «ma'naviyatga qarshilik quvvatining kuchayib borishi», "ma'naviyatning qotib borishi va moddiylashuvning ko'chayishi", "birlik o'rniga, sifat o'rniga sonning kelishi", "dunyoning oxiriga yaqinlashib borish" jarayoni sifatida tushuntiradi.

Yuqoridagi qisqa tahlildan buyuk va qadimiy donishmandlik bora-bora maxsus, alohida qism va bo'laklarga ajralib borgan degan xulosa kelib chiqadi. Ushbu ajralishning eng dastlabki bosqichida mifologik, ya'ni simvolik, adabiy badiiy, ayni diniy va falsafiy dunyoqarash shakllari mustaqil bo'ladi.

Keyinchalik diniy va falsafiy dunyoqarashning o'z ichida ham ajralish sodir bo'lib, har ikkisida ham mistik va aqliy (dogmatik) tomonlarning bir-biridan ajralish sodir bo'lgan dinda bu din dogmatikasi

(ortodoksal tamoyil) va mistik (mu'jizakorlik) harakatdagi tamoyillarni orasidagi ajralish va keyinchalik esa turli mazhablarga ham bo'linish sifatida namoyon bo'ladi. Falsafa esa metafizika, ya'ni jismoniy borliq haqidagi bilimlardan yuqori turuvchi bilim va aql yordamida, ilmiy bilimlar, fan yordamida asoslanadigan, ratsional (nazariy) falsafaga ajraladi. Ratsional falsafa hozirgi davrda ilmiy bilim bo'lib, falsafa nazariyasi yoki falsafa fani deb yuritiladi. Keyinchalik bu falsafadan ham masus bilim sohalari ajralib, mustaqil taraqqiy etilishi jarayoni vujudga keldi va ushbu jarayon bugungi kunda ham to'xtalgan emas.

Shuning uchun biz endi falsafiy dunyoqarashning o'z tabiati qanday o'zgarishlarga duch kelgani ham chuqurroq bilishga harakat qilaylik. Buning uchun bunda butun insoniyat falsafiy tafakkuri boshdan kechirgan tarixiy yo'lni qisqacha o'z boshimdan o'tkazishimiz kerak bo'ladi.

Biz mazkur savolimizni yoritishda, ya'ni falsafa dastlab nima ediyu, keyin nimaga aylandi degan masalani yechishda falsafa tarixiga murojaat etamiz.

Oldingi mavzularda kuzatganimizday dastlabki falsafa yaxlit, ajralmagan, barqaror mistik g'oyalar birligidan iborat bo'lgan. Shuning uchun falsafa tarixi undan sodir bo'lgan o'zgarishlardan boshlanadi. Bu o'zgarishlar G'arbda Platon davridayoq boshlagan edi. Shundan buyon, mashhur ingliz faylasufi va olimi B.Rasselning iborasi bilan aytganda "falsafa hamisha kimningdir yoki nimaningdir hizmatida bo'lib keldi".

Agar biz falsafa tarixiga, uning eng yirik bosqichlariga nazar solsak, yuqoridagi fikr to'g'riligiga hamda falsafaning predmeti va vazifalari tarixan o'zgarib borganiga iqror bo'lamiz. Lekin mazkur tahlil gap G'arb falsafasi xususida ketishini ta'kidlab o'tishimiz kerak. Sharq falsafasi haqidagi esa keyinroq gap ketadi.

Hozirgi Rossiyadan kelgan darsliklarda ko'rsatilishicha, falsafaning tarixi qadimgi sharqdan (Bobil, Misr, Hindiston, Xitoy) boshlanadi. Antik davrda uning gullab yashnashi, O'rta asrlarda uning "ilohiyot hizmati"ga o'tishi, uyg'onish davrida "Xudo emas inson"ga e'tibor qaratilishi, yangi davrda "aql va fan" tantanasi va nihoyat hozirgi davr "arosatda kelgan falsafa" davrini ajratiladi.

Ushbu yirik nazarning o'zidan ham falsafaning predmeti qanday o'zgarib borgani qisman ko'rinyapti. Bundan tashqari falsafada differentsiiallashuv ham silliq bo'lgan va bu xil ham uning predmetining o'zgarishga olib kelgan.

3. Differentsiiallashuvining qonuniyatli tabiati haqidagi nuqtai nazarlar. Hozirgi davrning ko'pchilik faylasuflari nuqtai nazariga ko'ra

ma'naviyatdagi ajralishlar ayniqsa, falsafadagi differentsiallashtiruvchi ijroiy hodisa emas. Masalan, B.Rassel bu ajralish falsafa uchun ham Fan uchun ham zararli bo'ldi degan bo'lsa, taniqli fransuz faylasufi R.Genon va taniqli nemis faylasufi va tarixchisi O.Shpengler (1880-1936) yanada umumiyroq xulosa chiqarib ushbu ajratish butun insoniyat ma'naviy inqirozdan dalolat beradi deb hisoblashadi. Xuddi shunday fikrlarni mashhur faylasuf va yozuvchilar, xususan A.Kamyu (1913-1930), F.Kafka (1883-1924) va boshqalar ham oldinga surganlar. Xususan, O.Shpengler rivojlanishi jarayonini madaniy-tarixiy simvolik miqdar, qadimgi madaniyat, metafizikaviy - diniy oliy madaniyat va hozirgi tobora dogmalashib, qotib o'lib borayotgan madaniyatli davrlar ajratadi. Har biri ming yildan iborat ushbu davrlar mazmunini taqqoslash orqali faylasuf sivilizatsiyada ma'naviyat madaniyat tobora qotib, dogmalashib borayapti degan xulosaga keladi.

Chindan ham insoniyat ma'naviyatida parchalanish va qotib qolish (dogmalashib) jarayonining tobora kuchayib borishi xatarlidir. Zero har qanday bo'lingan, narsa butun bilan bir qiymatga ega bo'lmaganiday, insoniyat ma'naviyatidagi ajralish ham asl va to'liq haqiqat bo'la olmaydi. Asl haqiqat qaror topmagan joyda esa tanazzul bo'lishi tabiiy. Lekin ushbu tanazzulning o'zi mutloqmi yoki yo'qmi? Undan qutilish mumkinmi o'zi yo'qmi?

Mazkur masalalarni shvetsariyalik mashhur yozuvchi K.Shpittler (1845-1924) qiyosidan foydalanib yorqinroq ifodalash ham mumkin. K.Shpittler insoniyat evolyutsiyasi sikllarini yil fasllarining davriy o'rin almashinuviga qiyoslab, ilohiyotning gullab yashnashi (bahoriy) yaproq to'kish, so'lishi kabi fasllar sifatida mifologik ravishda talqin etadi.

Ayni shu kabi xulosaga XX asrning buyuk mutaffakkiri, mashhur hind faylasufi Shri Aurobindo Gxosh (1872-1950) ham keladi. Mazkur faylasuf talqinida ushbu masala juda teran va juda yorqin yoritib berilgan.

“10000 yil oldin, - deydi Shri Aurobindo,- bir qancha daholaxlar dunyo sirini yulqib olishga muvaffaq bo'lgan edilar va lekin bu sirdan faqat ayrim kishilargina bahramand bo'la oldilar; endi esa bu sirdan biz hammamiz voqif bo'lmog'imiz kerak”. Ushbu ko'chirmadan kelib chiqsak, bizning ma'naviy evolyutsiyamiz 10000 yil oldin kashf etilgan Qadimiy donishmandlikni anglash sari harakatlanishi kerak ekan. Zero, bu donishmandlik daholaxlar – Payg'ambarlar, avliyolar, asl faylasuflar erishgan, biz uchun bu kungacha sir bo'lib qolgan buyuk bilim ekan. Endi esa, bu sirdan faqat ayrim odamlar voqif bo'lishga loyiq va tayyor bo'lgan bo'lsalar, endilikda butun insoniyat shunga tayyor bo'layozgani, ya'ni

insoniyat ongida, ma'naviyatida sodir bo'lgan barcha jarayonlar shu jumladan ratsionallashuv va differentsiallashtiruv jarayoni ham bejiz bo'lmagani, qonuniyatli tabiatga ega ekani hamda kelajak evolyutsiyamizda bu xolat ham o'tkinchi ekani va biz qaytadan buyuk, yaxlit haqiqatga sari yaqinlashib borayotganimiz haqida bashorat qilyapti. Albatta bu bashoratni butun ko'lami bilan tushunish uchun Shri Aurobindoning barcha asarlaridan bahramand bo'lish zarur.

Shunday qilib, umuman olganda jahon ma'naviy evolyutsiyasi chiziqli, bir tekis jarayon emas. Shunga qaramasdan uning kyechishida muayyan qonuniyat borligini payqash mumkin. Avvalo qadimiy ma'naviy qadriyatlarni chuqurroq o'rganish, qolaversa hozirgi kunda ilm-fan va falsafada erishgan bilimlarimiz «Zamon oxiri» haqidagi g'oyalar ham nisbiy ekani ushbu g'oyalar faqat ulkan bir siklning tugayotgani va boshqa katta siklning boshlanishidan habar berayotganini anglash imkonini beradi.

7-MAVZU: FALSAFA VA DIN

REJA:

- 1. Dinning mistik va falsafaning ezoterik jihatlarining aynan tengligi*
- 2. Din va falsafaning ratsional tamoyillari orasidagi munosabat*
- 3. Diniy va falsafiy dunyoqarashning istiqboli masalasi*

Dinning mistik va falsafaning ezoterik jihatlarining aynan tengligi. Oldingi mavzuda falsafaning differentsiallashtiruvini va shunga mos ravishda uning predmetining o'zgarib, torayib borayotganini ko'rdik. Endi falsafaning dunyoqarash va umuman, butun ma'naviyat bilan bog'lanishda bo'lgan sintetik jihatlariga e'tibor berishga e'tibor beramiz.

Butun insoniyat tarixi din, falsafa va san'at tarixidan iboratdir. Diniy dunyoqarash nazariyotchilarining fikriga ko'ra, Odam atodan to Muhammad s.a.v.ga qadar payg'ambarlar bu dunyoga tinimsiz kelib, insonlarga to'g'ri yo'l ko'rsatib turganlar. Agar dinshunoslar tadqiqotiga asoslansak, yana shu narsa ma'lum bo'ladiki, garchi dinlar ekzoterik jihatdan har xil bo'lsa hamki, ezoterik jihatdan ular birdir. Ezoterik jihat o'z ichiga maxsus oliy bilimni oladi. Bu maxsus bilim bizlar erishgan va erishishimiz mumkin bo'lgan bilimdan anchagina keng bo'lib, katta qismi sir saqlangan. Barcha dinlarda "ichki maktab"lar mavjud bo'lib, ularda sirli bilim (mistika) mazmunidagi ramzlar va majozlar nimalarnidir bildirilishi tushuntirilgan hamda ezoterik falsafa, yoki Xudo, inson va koinot orasidagi munosabat haqidagi ilm, ya'ni magiya (mo'jiza) o'rganilgan. Bu maktablar

dunyoviy fanlar vujudga kelgunicha va undan keyin ham birqancha asrlar mavjud bo'lgan.

Lekin bilim qancha yashirin bo'lmasin, sirli ta'limot bilimdonlari unga doxil bo'lishga loyiq kishilarni bilimdan xabardor qilishni o'z muqaddas burchlari deb bilishgan va bu yo'lda masofa uzoqligi ham halal bermagan. Bu bilimni tegishli odamlarga, turli yurtlarga yetkazishni o'zlarining muqaddas burchlari deb bilishgan. Sirli bilim insonni Xudo bilan bog'aydigan, uni bu dunyodagi azob-uqubatli hayotdan qutqaradigan yo'l deb hisoblagan.

Dinlarning sirli ilmi bilan falsafaning ezoterik jihati aynan tengdir. Zero, biz donishmandlikning ta'rifini keltirganimizda bu masalaga to'xtalgan edik. Ya'ni, falsafada ham yashirin (ezoterik) bilim mavjud bo'lgani haqida aytilgan edi. Shu ma'noda "diniy mistika" kabi "falsafiy mistika" ham, hamisha mavjud bo'lgan va ular bir-biri bilan hamisha bog'liq turganlar. Xatto shu darajada ular to'ldirilib, tenglashib ketgan. Bu ularning ratsionallashgan ta'limotlari mazmunida yorqin aks etgan.

Qadimgi yunon falsafasining ezoterik aspekti "Xususiy metafizikada" (Aristotel) o'z falsafasidan topgan bu "teologiya" edi. Keyinchalik Platon dialoglarida, ayniqsa "Teetet"da va neoplatonizmning borliq haqidagi ta'limotida va boshqalarda ham bu hol namoyon bo'ladi. Falsafa tarixida "Xristian neoplatonizm", "islom neoplatonizm" tushunchalarining kelib chiqishi shu fikrni tasdiqlaydi. Bu tushunchalar bir tomondan, ezoterik falsafiy ta'limotning tolerantligidan, ikkinchi tomondan, buyuk dinning o'zaro bog'langanligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, "Pifagorchilar hayoti"ga bag'ishlangan Yamvlix hikoyasida ham aytiladiki, «Pifagor ta'limotining juda sir tutilgani kishilarni hayratga soladi: bir qancha avlodlar hayotdan o'tdilar hamki, ta'limot yot kishilar qo'lga tushmadi. Faqatgina Filolay juda qashshoqlashib qolib, pifagorchilarlar kitoblaridan uchtasini Platon iltimosiga ko'ra 100 mingga sotgan edi. Filolayning o'zi pifagorchilardan bo'lganligi uchun unda bu kitob bor bo'lgan».

Shunday qilib, o'zlarining ezoterik (oliy) cho'qqilarida din va falsafa ayni birdirlar. Shunday ekan, ma'naviy madaniyat mazmunida ularning qay biri ustun degan savolni qo'yish yoki birini ikkinchisidan muhimroq, asosiyroq deb hisoblash noo'rin. Vaholanki, shunday qiluvchilar hamisha bo'lgan. Lekin bunday qarashlarni chuqurroq tahlil etilsa, bunday qarama-qarshilik yo'qligini ko'rish mumkin.

Masalan, taniqli G'arb sotsiologi M.Veber (1864-1920) dinni barcha qadriyatlarining eng tub asosi, degan fikrni oldinga surgan edi. Misr yogasi

haqida asar yozgan M.Eshbi esa Misr falsafasini yaxudiylik va xristian dinlarining asosi bo'lganligi haqida yozadi.

Bularning ham ikkisi ham aslida bir narsani, ya'ni din va falsafa uchun umumiy bo'lgan ezoterik mazmuni nazarda tutmoqdalar. Shu ma'noda har ikkisini ham haqli deyishimiz mumkin.

Din va falsafaning ratsional tamoyillari orasidagi munosabat. Har qanday din Vahiy kelishidan boshlanadi. Qadimgi Yunonistonda "Falsafa" deb atalgan ezoterik (sirli, irratsional) bilim haqida ham deyish mumkin. Har qanday ezoterik bilim faqat ratsional tafsirlangandan keyingina ta'limotga aylanadi. Ezoterik bilimni ratsional ta'limotga aylantirishning zarurati shundaki, barcha insonlar o'z onglariga ko'ra bir xil emaslar. Vahiy – payg'om esa shunday "habar"ki, uni boshqalarga yetkazish kerak. Vahiyni hamma odamlarga yetkazish vositalari – rivoyatlar, ilgari mavjud bo'lgan ilmiy, falsafiy va amaliy bilimlar ularning hammasi Vahiydek buyuk hikmatni tushunishga jalb etiladi. Ikkinchi tomondan, aqlda, ruhiyatida ancha ilgarilab ketgan insonlarga tuban nafslari poklanish orqali irratsional (mistik) bilimga erishish haqida ta'lim beriladiki, bunday kishilar komillikka erishib, maxfiy bilimni manbaning o'zidan oladigan darajaga (Anal Haqlikka) etishlari mumkin. Bu ilmining Turkiyadagi bilimdoni M.A.Jo'shon tushuntirishicha: "Ilm bevosita Allohdan bandasining ko'ngliga quyilmasa, oqmasa, doimiy bo'lmas, balki kelinchakning yuzidagi atir-upalar kabi bir qarashda o'chib ketadi. Ilmning davomiyligi, ijti hodning (g'ayratning) mustahkamligi, insonning asl inson bo'lib hammaga namuna bo'lishi uchun, shubhasiz, kishi (o'z) qalbini zikrulloh bilan qoplashi kerak... insonning eng qadrlı vaqti Parvardigor ibodati zikriga bag'ishlangan vaqtidir" (M.A.Jo'shon Tasavvuf va nafs tarbiyasi, 51-b.).

Vahiyni tushunishlari, unga etish darajalari bo'yicha insonlarni 3 toifaga ajratish mumkin:

Vahiyni bevosita qabul qiluvchilar.

Nazariyotchilar, ulamolar.

Dinni rasman tushunuvchilar.

Birinchi darajada payg'ambarlar, so'fiylar, avliyo (valiylar) turadilar.

Ikkinchi darajada turganlarning ham ahamiyati katta. Ular orasida birinchi darajaga yaqinlari ham, uchinchi darajaga yaqinlari bo'ladi. Ikkinchi darajadagilarning asosiy vazifasi ezoterik bilimlarni ekzoterik tafsirlashdan iborat.

Dinda bu uch daraja o'zaro bog'lanishda bo'lishi uning mustahkamligini ta'minlaydi. Lekin odatda dinning aqidaviy avtoritar

qatlami boshqa qatlamlaridan tobora ajralib, jaholatga moyillashib, agressivlashib boradi (salib yurishlari, diniy ekspansiyalar, “missiya” shiori ostida qon to‘kishlar, “Karbalo” fojeasi kabilar bunga misol bo‘ladi.

Pifagor “Insoniyatni juda katta havf–hatar kutadi. Ruhoniylarning johilligi, olimlarning materializmi, demokratiyada intizom bo‘lmasligi ... bular hammasi despotiyani (zulmga asoslangan hokimiyatni) vujudga keltiradi”, degani insoniyatning hayotini oldindan bashorat qilgani ko‘rinadi.

Lekin olimlarning materializmi qaror topishidan oldinroq XIV-XV asrlarda YEvropada “Uyg‘onish” (renessans) deb atalgan muhim tarixiy bosqich bo‘lgan. YEvropa ma'naviy madaniyati tarixida bu davrning o‘ziga xosligi shunda ediki, u bir tomondan, sxolastik falsafaning (diniy falsafa)ning teotsentrizmdan iborat biryoqlamaligini, ikkinchi tomondan, aqidaparstlikka moyilligini fosh qildi.

“Teotsentrizm” falsafasining diqqat markazida “Teos” – Xudo yotadi. Inson esa diqqatdan chetda qoladi, uning rivojlanishiga e'tibor berilmaydi va u faqat ko‘r-ko‘rona ijrochi bo‘lib qoladi. Aqidaparastlik esa falsafiy tafakkurning to‘xtalishi, o‘limi bo‘ladi.

Bu davrda falsafa bilan din orasidagi munosabat juda ziddiyatli, ayovsiz janglar ostida qolgan. Dinning aqidaparastlikka moyilligi ortib ketgan va endi ko‘pchilikdan iborat bo‘lgan qatlami «Din ilohiy, sirli bilim, unga falsafa kerak emas”, deyish, endi shakllana boshlagan maxsus fanlarga esa nafrat bilan, shirk sifatida qarash darajasiga etadilar. Mistik bilimga moyil kishilarni esa sehru-jodugarlikda ayblab, olovda yondirdilar.

Ratsional falsafa tarafdorlari esa, ratsional tafakkur huquqlarini talab qilib chiqib, Ibn Sino, Ibn Rushd kabi arab faylasuflari ilgari surgan “Ikki haqiqat nazariyasi”ga suyanib, falsafa san'at va fanlar taraqqiyotiga ham yo‘l ochishga intildilar, falsafani dindan ajralib, mustaqil rivojlanishi kerakligi g‘oyasini oldinga surdilar.

Shu tariqa dinning ekzoterik mazmuni kuchayib ketishi din bilan falsafa orasida katta ajralish va ziddiyatlar vujudga keldi.

Yuqorida ekzoterik aspektlarida din bilan falsafa murosasiz ziddiyat vujudga kelganigini ko‘rdik. Shuningdek, dinda ham, falsafada ham mazhablarga bo‘linish, differentsiallasuv benihoya kuchayib borib, bu hol ohir-oqibatda 1) ateistik (Xudoni inkor etuvchi) falsafiy ta'limotlarni keltirib chiqarganini; 2) falsafaning ham differentsiallasib, ilmiy dunyoqarash tarafdorlari tomonidan xuddi din kabi inkor etilganligini kuzatdik.

3. Diniy va falsafiy dunyoqarashning istiqboli masalasi. Din va falsafada bunday ajralish (differentsiallashtiruv) sodir bo'lishi ham ijobiy, ham salbiy xodisa deb baholanishi mumkin. Bu jarayonning ijobiyligi shundaki, diniy va falsafiy bilimlar butun insoniyat ongiga singib kirishi, ularni omma qabul qila oladigan bo'lishi uchun parchalanish holini ham chetlab o'tishi mumkin emas. Zero, hali insoniyat haqiqatni to'raligicha va chuqur qabul qilishga tayyor emas ekan, bu bilimlarning parchalanishi, bo'lak-bo'lak holda anglanishi jarayon bo'lishi tabiiy. Buning natijasida albatta, haqiqat o'zining asl qimmatini saqlab qola olmaydi, u tobora sayozlashib, zulmat ichiga cho'kib boradi. Ayni shu hol "Kali Yuga" davrida kuchayadi: Haq-haqsizlik bilan, adolat adolatsizlik bilan, mehr-muhabbat qahru adovat bilan, ezgulik tubanlik bilan, xudojo'ylik ateizm bilan, teran bilimlar yuzaki, sayozlik bilan almashadi. Lekin bu hol, majoz tili bilan aytganda, ezgulik (haqiqat) urug'larining tuproqqa sepilgan davri uchungina xos. Tabiatdagi har qanday boshqa urug' kabi ezgulik urug'i ham tuproq (zulmat) qa'rida bo'ladigan davrni boshdan kechiradi. Shu ma'noda bu davrning ham o'z ahamiyati borki, buni dehqonlar yaxshi biladilar. Ma'naviy ma'noda esa bu davr insoniyat ratsional tafakkurining shakllanishi va rivojlanishi uchun kerak bo'ladigan zaruriy shart-sharoitdir. Zero shu davr va shu sharoit insoniyat kundalik ongining rivojlanib borib, nazariy darajaga chiqishi, ya'ni uning intellektual qobiliyat kasb etib olishi uchun kerak. Ayni shu qobiliyat haqiqatni teran anglash uchun zarur. U insoniyat ongi idrok bosqichi bilan mistik-irratsional ong bosqichi orasidagi bog'lovchi xalqa vazifasini o'taydi. Demak, butun insoniyat Oliy Haqiqatni anglab etmog'i uchun avval, bu Oliy Bilimning differentsiallashtiruv, ratsionallashtiruv, mantiqiylashtiruv jarayoni sodir bo'lishi tabiiy edi. Va ommaviy ravishda butun insoniyat ratsionallik bosqichini o'tib bo'lgach, irratsionallik maqomini egallashi mumkinligi ham bashorat etiladi. Zero, "Beshikdan to qabrgacha ilm izlang" kabi xodisalar va barcha avliyo va faylasuflarning o'gitlari shundan dalolat edi. Barcha dinlarning ezoterik aspektida haqiqatga (irratsional bilimga) olib beruvchi yo'l ko'rsatilgani bejiz emas.

Endilikda insoniyat tafakkuri barcha dinlarning asl mazmunlari bir-biriga zid emasligini, dinlar bir haqiqatning birqancha tarixiy shakllari va zaruriy qismlari ekanini tushunishga qodir bo'la boshladi.

**8-MAVZU:
FALSAFA VA SAN'AT
REJA:**

1. *San'at va uning shakllari*
2. *Ezoterik falsafa va san'at*
3. *Ratsional falsafa va san'at*

San'at va uning shakllari. “Butun insoniyat tarixi bu din, falsafa va san'at tarixidir” deyilgan edi. Xo‘sh, San'at o‘zi nima? Bu savolga falsafaning nima ekanini aniqlab olib, keyin yondashmoq tabiiy, albatta. Ko‘p ommalashgan va qadimiy ta'rifga ko‘ra “falsafa tafakkurda ifodalangan davrdir”. U holda san'atga ham shunga mos ta'rif bersak, “San'at bu his-tuyg‘ularda qamrab olingan davr” bo‘ladi. Ushbu ta'riflar falsafa va san'at bir-biridan farqlantiradigan, ajratadigan ta'riflardir. Vaholanki, eng chuqur manbada ular bir, bir-biridan ajralmasdir. Ya'ni mifologik dunyoqarashda ham falsafa, ham san'at birgalikda mavjud. Zero, mifologiya bu ham falsafa, ham san'atdir. Sofoklning “Shox Edip”, Gomerning “Odisseya”, “Iliada” dostonlari, “Go‘r o‘g‘li”, “Alpomish” va boshqalar barchasi bunga misoldir. Lekin keyinchalik san'at va falsafa bir-biridan ajralishgan.

San'atning asosiy shakllari: adabiyot, musiqa, raqs, san'atkorlik, naqqoshlik, teatr va boshqalar.

2. Ezoterik falsafa va san'at. Chinakam san'at ham ezoterik ilm kabi transtsendental hodisadir. Ya'ni, “hol”ning natijasidir. Lekin keyingi davrda “hol”ga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan ishlarni ham san'at deb ataladigan bo‘ldi. Shuning uchun bu masalaga aniqlik kiritish kerak.

Qadimgi yunon mifologiyasida musiqa asbobini ixtiro etgan, sozanda, shoir va ashulachi, argonavtlar yurishlarining qatnashchisi, Xudolarni maftun etgan va tabiat yovvoyi kuchlarini bo‘ysundirgan Orfey haqida hikoya qilingan. Shunday obrazlar barcha xalqlarda bor. Dovud s.a.v. hamdu sanolariga yirtqich hayvonlar qanday sarmast bo‘lganlari haqidagi rivoyatlar bor. Majnun Layli ishqida xonish qilganida yovvoyi hayvonlar oshiqning oyog‘i ostida o‘tirganini tasvirlagan rasmlar ham bejiz emas. Hozirgi davr olimlari esa musiqaning o‘simliklarga ham ta'sirini aniqlaganlar.

Jahon adabiyoti klassigi Stendal: “Musiqa – inson qalbi tub-tubiga kirib borishga va undagi kechinmalarni ifodalashga qodir bo‘lgan yakkayu yagona san'atdir”, degan bo‘lsa, J.Rumiy: “Dunyoda hech narsa musiqa va raqs yanglig‘ inson ruhining yashirin quvvatlarini oshkor etolmas, musiqachalik turmush tashvishlaridan xalos etib, o‘z ruhiy olami sari boshlay olmas. Musiqa xotin kishiga o‘xshaydi. Uni cho‘ri deb istifoda etarkansan, o‘zingda insonni uxlatib, hayvonni uyg‘otursan”.

A.R.Beruniy she'r shaklida berilgan bilim yaxshi o'zlashtirishi, xotirada yaxshi qolishiga e'tibor qaratib, "Ruh tartiblashtirigan narsalarni yaxshi qabullaydi", "Vazn, qofiyalar, ritm-bularning hammasi asosida esa shoirning ezgulikni, Xudoni sevishi yotadi", degan bo'lsa, frantsuz yozuvchisi Balzak esa "Yozuvchi butun koinotni bir so'zda, butun falsafiy ta'limotni bir obrazda ifodalay olishi kerak", degan edi.

Qolaversa, muqaddas kitob "Qur'on" juda nafis poetik shaklda ifodalangan. Shuningdek, Sharqning dunyoga mashhur mutafakkirlarining aksariyati, masalan, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Bedil, Hofiz, Sa'diy, Umar Xayyom, Yassaviy, Mashrab va boshqalar o'z falsafiy g'oyalarining nafis she'rlar orqali ifodalaganlar. Gyote "Sharqda 7 ta yorqin yulduz bor, men ulardan eng kichigining bir zarrachasiday ham emasman", deganida ayni shunday buyuk san'atni nazarda tutgan.

Ikkinchi tomondan qaraganda, o'z falsafiy g'oyalarini badiiy ijodda aks ettirgan G'arb badiiy ijod sohiblari ham kam emas. Masalan, Dante, Shekspir, Leonardo da Vinchi, V.Gyugo, O.Balzak; Rossiyada Pushkin, Tolstoy, Didro, Dostoevskiy, Chexov, Gersen. Qadimgi yunon falsafisida bu hol keng namoyon bo'lgan: Gomer, Orfey, Esxil, Safokl, Ezop, Verdi, Chaykovskiy, Mosart va boshqalar.

Hozirgi darda G'arb ekzistensialistik falsafisi g'oyalari A.Kamyu, F.Kafka va boshqalarning badiiy ijodi shaklida namoyon bo'lmoqda.

Ayni shu gaplarni rassomlik, me'morchilik, grafika, musiqa haqida ham aytish mumkin.

Nafis san'atning bu qadar buyuk kuchga egaligini rus yozuvchisi F.Dostoevskiy "Dunyoni go'zallik qutqaradi" deganida ana shunday pok tuyg'ularni nazarda tutgan edi.

Inson qalbini poklashdagi musiqaning ahamiyati ham bundan qolishmaydi. Agar nazm bilan qo'shilsa, u yanada buyuk kuchga aytiladi. Geyne Sharqning buyuk yulduzlari deya ulug'langan shoirlaridan biri Alisher Navoiyning bosh qahramoni Oshiq inson ekani ham bejiz emas. Zero, Navoiyning, uqtirishicha aynan ishq inson qalbini bulg'anishlardan, zangdan tozalaydi va Xudoning borligini xis etishga olib keladi.

Tasavvuf ta'limotida ramz, majozlar ayniqsa ko'p ishlatiladi, bu bejiz emas. Chunki, yuksak xis-tuyg'ularni oddiy so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Shuning uchun shoir timsollardan, qiyoslardan, ramzlardan foydalanadi.

Umuman, mifologik dunyoqarash majoziy bo'lib, bu murg'ak insoniyatning hali etarli shakllanmagan ongiga buyuk ilohiy haqiqatni ham tuyg'u, ham ramziy ifodalar vositasida yetkazish san'ati edi. Mifdan

Logosga ramzlarda ifodalangan tuyg'ulardan ratsional ongga o'tish jarayoni esa ruhan ancha tuban tushish edi. Lekin, ilgari ko'rgamizday, bu "tushish" ham kerak edi.

3. Ratsional falsafa va san'at. Mistik «Hol» atda nozil bo'lgan, buyuk san'at zavqu-shavqi osmoniga (jannatga) ko'tarilgan insonni moddiy dunyo tashvishlariga qaytishi og'ir. Shuning uchun ham Sh.A.Gxosh to'g'ri aytganidek Sharqda ruhiyat osmonlariga, tarkidunyochilik (asketizm) kuchli bo'lgan, G'arbda esa aksincha, ratsional tafakkur, tashqi bilimlar, tashqi olamni, tabiatni o'rganish, o'zlashtirish, hattoki, uni o'ziga bo'ysundirish mayli kuchli bo'lgan. Va, albatta, bularning har ikkisida ham muayyan ma'noda, biryoqlamalik, ya'ni bir narsadan kechib, boshqa narsaga intilish mavjud. Mavlaviy atyanidek, :

Sharq Haqni topdi dunyodan kechib,
G'arb dunyo topdi Oллоhdan kechib.

Vaholanki, payg'ambar Muhammad s.a.v. aytganlaridek, "Bu dunyoni deb u dunyodan, u dunyoni deb bu dunyodan voz kechmaslik kerak" va Iso a.s. aytganlariday, aynan shu dunyoda "YErda Iloh saltanatini tiklamoq kerak" va A.Gxosh aytganiday inson o'zligini bilish orqali ham u dunyoda, ham bu dunyoda mavjud bo'la oladigan komillikka erishuvi kerak. Bu esa insoniyatni tuban holda yashaydigan shart-sharoitlarini o'zgartiradigan, «hol» ga qadar bosib o'tilishi kerak bo'lgan tayyorgarlik, ya'ni «qoralama» ishlarni ham bo'lishini taqozo etadi. Bu "qoralama" ish ratsional tafakkur, nazariy ilm va kundalik amaliy faoliyat zimmasidadir. Bu ishda eng yuqori pog'onada ratsional falsafa turishi mumkin. Keyin esa proza, ekzistentsial asarlar maydonga chiqadi.

Endilikda, ratsional tafakkur o'z tarixiy missiyasini bajardi. Ma'naviyatning barcha sohalari, hatto san'at ham muayyan darajada ratsionallashti. Eng kulgilisi shundaki, temirdan, simdan va boshqa narsalardan yasalgan jonsiz mashinalarga musiqa, she'r yozish, bolalarga enagalik qilish, mana hozir talabalar bilimni baholash ishlarini bajarish vazifalari yuklatilyapti. Bir tomondan qaraganda bu mashinalar inson intellektual qobiliyati erishmagan hayratlanarli "ishchanlik" ni marralarni namoyish etyapti. Ikkinchi tomondan esa mashina hech qachon qalbning o'rnini bosa olmasligi, uning ijodi chin ijod bilan bo'la olmasligi yaxshi anglab etilmaydi. Garchi, mashina talaba intellektual qobiliyatini balki "adolatli" baholay olsa hamki, u hech qachon uning uning qalbidagi ijod imkoniyatini uyg'ota olmaydi.

G'arbda ratsional tafakkur tantanasi XVIII asr oxiri XIX asr boshlaridayoq sodir bo'ldi va bu Sharqqa ham ta'sir ko'rsatdi.

Ratsionallashuvning ham ijobiy, ham salbiy jihatlari mavjuddir. Yaxlit bilimning differentsiallashuvi, juda mayda sohalarga bo‘linishi oqibatida insoniyatning keng qatlami intellektual qobiliyati rivoj topdi, insoniyat poda hoida stixiyali yashashdan shaxs sifatida yashash darajasiga ko‘tarilgani ijobiy jihatdir. Salbiy jihati esa, Fil haqidagi rivoyatda ko‘rsatilganidek, filning mayda qismlari, dumi, quloqlarinigina ko‘rib, uni yaxlit jonivor sifatida qandayligini bila olmagan ko‘rlarga o‘xshab, differentsiallashgan fan ham ojiz ekanida.

Mashinalar informatsiyaning boy zahirasiga ega, shuning uchun ular juda ko‘p bilim bera oladilar. Lekin ular hech qachon talabalarga dildan ma'ruza o‘qiydigan lektorning o‘rnini bosa olmaydi. Chunki, chin bilim, ijod samarali bo‘lib, faqat qalbdan qalbgga uzatiladi, uni eng yuksak texnika ham bera olmaydi. Vaholanki, chin ustozning bir nigohida bir olam ilm jo bo‘la oladi.

Shunga qaramasdan, ratsionallashuvning insoniyat ham qismatida borligi bejiz emas. Albatta, bu davr san'ati ham ratsionallashuv hukmron mavqeda bo‘lmagan vaqtdagidan ancha boshqacha rivoj topdi (Aruz vazni o‘rniga barmoq vazni, barmoq vazni o‘rniga oq she'riyat, romanchilik o‘rniga publitsistika kelganiday, inson ichki go‘zalligini madhiyalari o‘rniga tashqi go‘zallik madhiyalari ustuvor bo‘la boshladi).

Biz yashayotgan davrning talabi shundaki, chin falsafa (ezoterik va ekzoterik, ratsional va irratsional falsafa) chin san'at bilan uyg‘un birlikda bo‘lishi kerak. Buning uchun san'atda tegishli ma'no teranligi, falsafada esa chin qalb hikmati yuzaga chiqishi kerak.

9-MAVZU: FALSAFA VA FAN

REJA:

- 1. Falsafaning ilmiyligi muammosi*
- 2. Stsiyentizm va antistsiyentizm*
- 3. Falsafa va fan orasidagi bog‘liqlik masalasiga keng yondoshuv*

Falsafaning ilmiyligi muammosi. Dunyo, borliq haqida yaxlit, umumiy bilim sifatida falsafa murakkab tuzilmadir. Uni qiziqtiradigan muammolar shu qadar rang-barang, serqirradi, ularni o‘rganish ko‘p hollarda maxsus soha doirasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar bilan bixtiyor tutashib ketadi. Shuning uchun o‘xtin-o‘xtin falsafa maxsus fan sohalari izlanishlariga noo‘rin aralashadi, degan qarashlar paydo bo‘ladi. Va aksincha, falsafaning boshqa maxsus ilmiy muammolar bilan uzviy bog‘liq tomonlarinigina ko‘rib, uning boshqa tomonlarini ko‘ra bilmaslik

oqibatida uning fanning muayyan sohasimi yoki yo'qmi, balki u «fanlar fani» degan fikr tug'iladi. Uchinchi tomondan esa falsafa fan ham emas, «fanlar fani» ham emas, balki badiiy ijod, san'at yoki din o'ziga xos shakli, degan fikrlar ham bor.

Ushbu savollarga muayyan javob topmasdan turib, falsafiy dunyoqarashning asl tabiatini anglab etish qiyin.

Yuqorida ta'rif etilgan muammo «falsafaning ilmiyligi muammosi» deb yuritiladi. Muammoning mohiyati shundaki, falsafa aslida faqat fanning xilma-xil soxalari-fizika, matematika, astronomiya, ximiya, biologiya, tarix, psixologiya va boshqalar bilangina emas, balki ma'naviy madaniyatning barcha shakllari - san'at, axloq, xuquqshunoslik, siyosat, din kabilar bilan, shuningdek, kundalik hayotiy tajribalar bilan ham uzviy bog'lanishga ega. Shuning uchun ushbu muammoni yechishda yakdillik yo'q, xatto keskin qarama-qarshilik ko'p uchraydi hamda qarama-qarshi nuqtai nazar mualliflari orasida qizg'in baxslar tinimsiz davom etib kelmoqda.

2. Stsiyentizm va antistsiyentizm. Xilma-xil yechimlar orasida bir-biridan tubdan farq qiluvchi uchta qarashni alohida ajratish mumkin. Bulardan biri-stsiyentizm, ikkinchisi-antistsiyentizm deb nom olgan. Birinchisi falsafaga fan bilan bir pog'onada turadigan tafakkur shakli deb qaraydi. Ushbu tamoyil tarafdorlari falsafaning ilmiylik jihatini boshqa maxsus fanlar, ayniqsa tabiiyot fanlarining ilmiylik mezonlari asosida keltirib chiqarish (reduksiyalash) mumkin deb hisoblaydilar. XX asr G'arb falsafasida bunday nuqtai nazar postpozitivizm falsafiy oqimi namoyandalari, masalan, K. Popper, Lokatos, Tulmin va boshqalar tomondan oldinga surilgan edi. Sobiq ittifoq davridagi barcha darslik va ilmiy adabiyotlarda ham falsafaga stsientistik yondoshuv qaror topgan edi. Bu o'sha davrda falsafaga berilgan ta'rifdan, ya'ni «falsafa - tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining eng umumiy qonunlari haqidagi fan» degan ta'rifdan ko'rinadi.

Stsiyentizmga qarama-qarshi yondoshuv-antistsiyentizm-falsafani san'atga yoki dinga ko'proq tegishli deb qaraydi. Bu qarashlarga falsafada mantiqiy tafakkur emas, erkin ijod ko'proq namoyon bo'lishi haqidagi fikrlar asos qilib olinadi. G'arb falsafasida ushbu tamoyil M. Xaydegger, J.P. Sartr, A. Kamyu kabi ekzistentsialist-faylasuflarning qarashlarida o'z ifodasini topdi.

Uchinchi nuqtai nazar tarafdorlari (neopozitivistlar) falsafa fanga, ayniqsa tabiiyot ilmiga (fizika, ximiya, biologiya va h.k.) xos bo'lgan

ilmiylik mezonlariga javob bermaydi, shuning uchun uni fan deb hisoblab bo'lmaydi, degan fikrni oldinga surishdi.

Bu qarama-qarshi tamoyillaridan qay biri ko'proq xaqli yoki noxaq ekanini jo'ngina aniqlab bo'lmaydi. Buning uchun ikkala tomonning ham fikr-mulohazalarini chuqur taxlil etish zarur. Zero harqanday o'ta qarama-qarshi fikrlarda bo'lgani kabi, bu ikkala tamoyil mushohadalarida ham muayyan to'g'ri xulosalar va, aksincha, biryoqlamaliklar mavjud.

Birinchi tamoyilning haqli jihati shundaki, falsafada chindan ham fanga xos bo'lgan talay xususiyatlar mavjud. Juda qadim davrlardan boshlab uning fan bilan bir xil bo'lgan ko'pgina usullari dunyoni bilishga tatbiq etib kelinayotgani, xususan, analiz, sintez, umumlashtirish, tartiblashtirish, o'zaro bog'lanish va ta'sir qonunlarini aniqlash kabilar xususiy ilmiy izlanishlarga jalb etib kelingani yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Lekin falsafa, ayni zamonda, boshqa maxsus fanlar amalga oshira olmaydigan boshqa talay vazifalarni, masalan, metodologiya, oliy darajadagi umumlashmalar xosil qilish, dunyoning eng yaxlit manzarasini yaratish kabilarini ham bajaradi. Demak, falsafani fan deb bilgan taqdirimizda, ham uni oddiy fanlar qatoriga qo'shib bo'lmas edi. Zero falsafa fanga xos vazifalarni bajarish bilan bir qatorda hech qaysi maxsus fan bajar olmaydigan boshqa bir qator vazifalarni-metodologiyaviy, dunyoqarovchanlik, tarbiyaviy, mafkuraviy va hokazalar ham bajaradi.

Falsafa fan emas, deydiqanlar nuqtai nazaridagi o'rinli fikr shundaki, falsafa chindan ham hozirgi davrning eng rivojlangan fanlari - fizika, matematika va boshqalar bo'ysunadigan ilmiylik mezonlariga qat'iy rioya etmaydi. Bu xolat xatto yuzaki qaraganda ham ko'zga yaqqol tashlanadi. Masalan, maxsus ilmda yagona klassik mexanika, yagona kvant mexanikasi, yagona noorganik ximiya kabi sohalar bor, boshqa klassik mexanika, boshqa noorganik ximiya kabilar yo'q, bo'lishi ham mumkin emas. Lekin falsafada bunday o'zgarmay turadigan ta'limot yo'q. Bunda ta'limotlar olami nihoyatda xilma-xil, rang-barang va ziddiyatli. Ularni yagona bir ta'limot ostida birlashtirish deyarli mumkin emas. Har bir falsafiy ta'limot o'z muallifining nomi bilan atalishi ham shundan. Masalan, Aflotun falsafasi, Forobiy falsafasi, Feyerbax antropologik materializmi, F. Bekon empirizmi, Berkli sub'yektiv idealizmi va hokazolar.

Zero falsafa uchun eng muhimi inson hayotining ma'noyu maqsadini, inson nimaga intilib yashashi lozimligini aniqlashdan iboratdir. Aks holda bu falsafa emas, faqat fan bo'lur edi, ya'ni boshqa fanlardan vazifalari doirasi birmuncha kengroq bo'lgan «fan» bo'lur edi xolos.

Ayni shu maqsadiga ko'ra falsafiy g'oya va qonunlarda, faqat ob'yektiv, ilmiy bilimlarga emas, balki sub'yektiv ijodiy yondashuvlar ham keng qatnashadi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, falsafiy xulosalarda ta'limot muallifining shaxsiy tajribalari va xis-tuyg'ulari, individual ijodiy imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi va fandagidan kuchdiroq va umumiyroq doirada amal qiladi. Shu ma'noda, antistsiyentizm namoyandalarining falsafaga erkin ijod shakllaridan biri deb qarashlarida ham etarli asos bor, albatta.

Lekin, ikkala tamoyil-stsiyentizm va antistsiyentizmning mulohazalarida umumiy kamchilik ham mavjud. Ikkala tamoyil ham falsafaning muxim jihatlaridan birini inkor etib, ikkinchi jihatini ustun o'rniga chiqarishga urinadi. Stsiyentizm falsafaning mantiqiy-ratsional, ya'ni ilmiy jihatini ustun bilib, uning sub'yektiv ijodiy imkoniyatlarini nazardan soqit qilayotgan bo'lsa, antistsiyentizm, aksincha, uning faqat erkin sub'yektiv ijod sifatidagi ahamiyatini bo'rttirib, ilmiyligini nomuhim deb bilmoqda. Natijada falsafaning asl tabiati biryoqlama yoritilmoqda, mazmuni toraytirilmoqda, sayozlashtirilmokda.

3. Falsafa va fan orasidagi bog'liqlik masalasiga keng yondoshuv. Stsiyentizmning ham, antistsiyentizmning ham ijobiy fikrlarini saqlab qolgan holda, ularning kamchiliklarini bartaraf etishga qaratilgan yondoshuv ushbu muammoga haqiqiy yondoshuv imkonini beradi. Ya'ni biz falsafaning ilmiyligini ham, erkin sub'yektiv ijod shakli ekanini ham barobar tan olishimiz lozim degan xulosa chiqadi. Zero falsafaning ilmiyligi uning erkin sub'yektiv ijodiylik jihatiga, erkin sub'yektiv ijodkorlik jihati esa ilmiyligiga zid kelishi shart emas. Shu ikkala jihatni o'zida jo qiladigan falsafa, albatta, ilmiylik mezonlariga ham ijodiy faoliyat mezonlariga ham javob bera oladi. Lekin maxsus fan tarmoqlari yoki erkin ijod sohalarining ayni o'zidagiday emas, birmuncha kengroq miqyosida, boshqacharoq tabiatda javob beradi.

Albatta, yuqoridagi mulohazalar oliy ma'nodagi falsafa haqida ketyapti. Zero, faylasuflar, falsafiy maktablar o'z tadqiqotlarida butun insoniyatning bilim va tajribalariga tayangan holda dunyoning yaxlit manzarasini chizib berishga, «dunyo o'zi nima» degan savolga javob izlashga urinib kelganlar. Bu savolga javob berish uchun barcha mavjud bilim va tajribalarga tayanishga, ilmga xos bo'lgan ko'pgina vazifalarni ham bajarishga to'g'ri kelgan. Ayni zamonda falsafiy dunyoqarash nafaqat dunyoni aqliy bilish, balki insonning dunyoga munosabati masalasini, inson hayotining maqsadini aniqlashni pirovard maqsad qilib oladiki, bu yo'lda faylasuf o'z shaxsiy xulosalari, individual xis-tuyg'u,

tasavvurlaridan, ijodiy imkoniyatlarini ham jalb etadi. Shuning natijasida o'laroq falsafiy nuqtai nazarlar xilma-xilligi vujudga keladi, ya'ni plyuralizm namoyon bo'ladi.

Lekin falsafadagi ijodiy xilma-xillik san'at sohasidagi kabi erkin emas. Falsafaning ilmiylik jihati (ilm-fanga tayanishi) undagi ijodiy erkinlikni muayyan doiradan chetga chiqmasligini ta'minlaydi. Va, aksincha, falsafaning ijodiylik jihati uning muayyan ilmiy xulosalar doirasida qolib ketmasdan, falsafiy fikrning yangi manzillariga erkin parvoz etish imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Demak chin donishmandlik shu ikki jihatning o'zaro muvozanatida namoyon bo'ladi. Falsafaning mazkur jihatlaridan birinchi tan olib, ikkinchisini inkor etish uning sifatini butkul o'zgarishiga olib keladi.

10-MAVZU:

FALSAFA METOD MUAMMOSI

REJA:

- 1. Falsafada metod (uslub) masalasi*
- 2. Dialektika haqida tushuncha*
- 3. Sofistika uslubning mohiyati*
- 4. Eklektika haqida tushuncha*
- 5. Metafizika haqida tushuncha*

Falsafada metod (uslub) masalasi. Har qanday fanning yoki faoliyatning muvaffaqiyati va o'ziga xosligi uning bilim xosil qilishda qo'llaydigan uslubiga ham bog'liq. Demak, dunyo va inson haqidagi hikmat ilmi sifatida falsafaning ham o'z metodi, ya'ni bilish uslublari bor. Falsafaning uslubi haqida hamisha bahslar yuritilgan bo'lib, bu falsafaning ma'naviyatning murakkab bir hodisasi ekani bilan bog'liq.

Falsafada metod haqida gap ketgani dialektika, sofistika, eklektika va metafizikani sanab o'tishadi yoki «dialektika va uning muqobillari» haqida fikr yuritiladi. Keyingi g'oya falsafaning asosiy tafakkur uslubi sifatida dialektikani alohida ajratish, qolgan uslublarni esa unga qarshi qo'yishni bildiradi.

Masalaga boshqacharoq yondoshish maqsadga muvofiqroq. Ya'ni borliqni falsafiy anglashda yuqoridagi har bir uslubning muayyan o'rni bor. Buni tushunish uchun esa har bir uslubni alohida tahlil etish kerak.

Dialektika haqida tushuncha. Dialektika – yunon tilida baxslashuv, munoza yuritish, suhbatlashuv san'atni ma'nolarini ifodalaydi. «Dialog» so'zining o'zi esa ikki kishining suhbat ma'nosini bildiradi. Dialog falsafiy baxs yuritish san'ati sifatida qadimgi yunon faylasufi Suqrot tomonidan juda mahorat bilan amalga oshirilgan. Ushbu dialoglarda yutuvchi tomon

ham, yutuqazuvchi tomon ham bo'lmagan. Chunki baxs yurituvchilarning maqsadi haqiqat izlashdan iborat bo'lgan. Shu ma'noda yutuvchi tomon kibrlanmagan, yutqazuvchi tomonda esn alam bo'lmagan. Baxs yuritilgan masala o'z yechimini topishidan ikki tomon ham barobar manfaatdor bo'lishgan. Baxslashuvchi tomonlar bir-birining fikridagi noaniqlik, biryoqlamalik yoki yuzakilikni topishda bir-birlariga yordam berishgan. Dialoglar jarayonida borliq haqida tobora aniq, chuqur, ravshan tasavvur shakllana borishi asosiy ish hisoblangan. Shu ma'noda dialektika tushunchasi 2-ma'noda ishlatiladi:

- 1) falsafiy bilim xosil qilish uslubi;
- 2) dialektik fikrlash orqali hosil qilingan falsafiy bilim.

Dialektika bilish uslubi sifatida tafakkurdagi qarama-qarshiliklarni, ziddiyatlarni yechish orqali haqiqiy bilimni kashf etish mahoratini anglatadi.

Ta'limot sifatida esa dialektika borliqdagi barcha narsa va hodisalar, shu jumladan bilimlardagi eng umumiy bog'lanishlar, ular rivojlanishining yalpi umumiy qonunlari va h.k. haqidagi yaxlit bilim tizimi hisoblanadi.

Sofistika uslubning mohiyati. Dialektikaning chin ma'nodagi muqobili sofistikadir. Sofistika yoki sofizm mohiyati dialektikaga qarama-qarshi uslubdir. Sofizm (yunoncha-makr, xiyla, uydirma) to'g'ri deb ko'rsatiladigan, lekin mantiqan to'g'ri bo'lmagan mavhum fikrlash, xulosa chiqarish, isbotlash usulidir. Shu ma'noda «sofist» deganda yolg'on xulosalar chiqaradigan va shu xulosalardan o'z shaxsiy manfaati uchun foydalanadigan shaxslar nazarda tutiladi. Aflotunning «Dialoglar»ida sofistga ko'plab misollar keltirilgan («Evtidem» va boshqalar). Aflotunning «Sofist» degan dialogi ham shu mavzuga maxsus bag'ishlangan. Eng qadimgi «Shoxli» degan sofizmi misol qilib ko'rsatish mumkin. Ushbu sofizm: «Sen yo'qotmagan narsangga egasan. Sen o'z shoxingni yo'qotmagansan. Demak sening shoxing bor». Bu sofizmning mantiqan to'g'ri emasligi umumiy qoidadan xususiy holni noto'g'ri chiqarilishida, ya'ni umumiy qatnashmagan xususiyatni chiqarib olinishidadir.

Kishi duch kelishi mumkin bo'lgan ikki qarama-qarshi holdan birini tanlashi zarurati alternativ masala uchragan hollarda sofist o'z manfaatiga hizmat qiladigan yechimni bu mantiqqa to'g'ri kelishi yo kelmasligidan qat'iy nazar) mutlaqo ixtiyoriy ravishda tanlab olishi tarzidagi sofizmlar hozir ham ko'p tarqalgan.

Sofizmi «paradoks» tushunchasi bilan chalkashtirib yubormaslik kerak. Ular orasida farq bor. Zero paradoks muayyan masalalarni

yechishdagi mantiqiy qiyinchilik mavjudligi tufayli kelib chiqsa, sofizm mantiq va semantika (soʻzning maʼnosi va ifodalanishi) qoidalarini va ular orasidagi munosabatlarni ataylab buzishdan iborat xodisani bildiradi.

Sofizmlarni tuzish va ularning yordamida oʻz raqiblari bilan kurash olib borish uslubi qadim davrlardan buyon bor va hozir ham keng tarqalgan. Ushbu uslub kishini haqiqatga yaqinlashtirish oʻrniga, aksincha, undan juda uzoqlashtiradigan, fikriy «koʻz bogʻlovchilik» «gʻirromlik»ni ifodalaydi. Lekin umuman olganda, kishining maqsadi faqat koʻzboʻyamachilik qilish emas, balki baxs sanʼatini oʻrganishga kirishishidan iborat oʻtkinchi bosqich sifatida qaralsa, sofistikaning ham tafakkur taraqqiyotida ijobiy roli yoʻq emas. Lekin uning roli bundan ortiq emas.

Eklektika haqida tushuncha. Falsafiy tafakkur taraqqiyotida eklektikaning ham oʻz oʻrni bor. Eklektika yunon tilida tanlashga loyiq, tanlovchi degan maʼnoni bildiradi. U bir-biridan ajralib ketgan qarashlar, gʻoyalar, printsiplari va taʼlimotlarni birlashtirish uslubi sifatida ijobiy rol oʻynashi mumkin.

Ayniqsa Fanlar, falsafiy taʼlimotlar juda chuqur differentsiallashib ketgan hozirgi davrda ularni toʻgʻri bogʻlash uslubi amal qilmasa, butun borliq haqidagi yaxlit manzara, taʼlimot vujudga kela olmaydi. Shu maʼnoda eklektika dialektikani toʻldiruvchi, yordamchi metod sifatida muhim ahamiyatga ega.

Eklektikani salbiy maʼnoda tushunish ham mavjud. Bu tushunishga koʻra eklektika printsiplari jihatdan bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan gʻoya, printsiplari yoki taʼlimotlarni oʻzaro sunʼiy birlashtirishdan iborat notoʻgʻri intilish deb hisoblanadi. Bunday tushunish yo eklektikaning asl mohiyatini tushunmaslikdan yoki muayyan taʼlimot asoschilari oʻz qarashlarini boshqa taʼlimot yoki qarashlardan keskin ajratishga boʻlgan intilishidan kelib chiqadi. Aslida borliq yaxlit, bir butun va uni bilish jarayoni behad differentsiallashib ketgani uchun falsafada ijobiy amal qila oladigan tafakkur uslubi sifatida eklektikaning vazifasini chetlab oʻtishi mumkin emas.

Metafizika haqida tushuncha. «Metafizika» soʻzi Arastuning shogirdi Andronik tomonidan kiritilgan boʻlib, «jismlar ortidagi» degan maʼnoni bildiradi. Ushbu tushuncha orqali u mushohada (fikrlash) orqali bilib boʻlmaydigan borliqni ifodalagan. Mushohada orqali bilib boʻlmaydigan borliq transsendental borliq boʻlib, uni faqat maxsus hissiy holatga, jazbaga, «hol»ga erishish orqali, ekstatik bilish mumkin. Dinda bu «vahiy» orqali keladigan bilim deyiladi. Ilmiy tilda esa bu transsendental bilim

deyiladi. Transsendental bilimning eng quyi shakli intuitsiya bo'ladi. Intuitsiya bilimning g'ayrihuuriy, ya'ni aqliy faoliyat ishtirokisiz xosil bo'lishidir.

Falsafiy dunyoqarash taraqqiyotida to'rttala uslubning ham o'z o'rnida bor. Ularning har biri falsafaning ong rivojlanishida o'z o'rnida qatnashadi.

11-MAVZU: FALSAFANING INTEGRALLASHISHI MUAMMOSI

REJA:

1. *Materializmga asoslangan mafkuraning cheklanganligi*
2. *Cheklanmagan falsafiy dunyoqarashni shakllantirish muommosi*
3. *Integrallashgan falsafaning vujudga kelishi*

Materializmga asoslangan mafkuraning cheklanganligi. Barcha tub falsafiy masalalarga materialistik nuqtai nazardan qarash hukm surgan yaqin o'tmish mafkurasida inson ma'naviyati, ongi, ruhiyati masalasiga ikkilamchi o'rin ajratilgan edi. Bugun esa, ayni shu materialistik nuqtai nazarni to'g'riligi masalasini yechish dolzarb ahamiyatga ega. Ya'ni markscha dunyoqarashning asosiy paradimasiga moddiy borliq ong, ruh, tafakkuriga nisbatan birlamchi degan qoidasiga o'z munosabatimizni keskin aniqlay olmasdan turib hozir oldinga surilayotgan komil inson kontseptsiyasi (g'oyasi) haqida fikr yuritib bo'lmaydi.

Hozirgi kunlarda misol tariqasida qaysi yoshni olmag, u kitob o'qish, chuqurroq bilim egallash, ijod bilan shug'ullanish yoki ahloqiy muammolar haqida gap ketsa, avvalo iqtisodiy jihatdan mustahkam oyoqqa turib olish kerakligi haqidagi fikrni oldinga suradi. Bu hol hozirgi davrda iqtisodiy muammolar dolzarb o'ringa chiqqani tufayli sodir bo'lganday ko'rinadi. Lekin masalaga yuzaki qaraganda shunday. Aslida boshqa, ko'rinmayotgan sabab bor. Ayni shu sabab, bizningcha asosiy bo'lib, birinchisi uning natijasi ekanini payqash qiyin. Zero bu g'oya ko'pchilikning ruhiyatida hamon o'z hukmronligini saqlab kelayotgan o'sha eski g'oya, ya'ni moddiy munosabatlar birlamchi, ruhiyat, ong ikkilamchi degan materialistik g'oyaning o'zi. Amalparastlik, shuhratparastlik, ahloqiy va maishiy buzuvchilik, nashavandlik kabi, bir so'z bilan aytganda «to'qlikka sho'hlik» oqibatida kelib chiqayotgan, vatanni sotib bo'lsa ham shunday «to'qlikka» bo'lgan kuchli intilish mayli ayni shu qoidaning hamon amal qilib turganidan dalolat bo'ladi.

Cheklanmagan falsafiy dunyoqarashni shakllantirish muommosi. Shu ma'noda yoshlar tarbiyasi yo'lida falsafiy dunyoqarash sohasida qilinadigan ishlar orasida eng dolzarbi ana shu qoidani tag-tomiri bilan

sugʻurib tashlash boʻlishi kerak. Lekin buni yoshlarni tarkidunyochilikka undash, ularni faqatgina ruhiy kamolotgina intilishlarini taʼminlash kerak degan maʼnoni tushunish kerak emas. Zero asketizm ham masalaning chin yechimini emas va u tarixan oʻzini oqlagan ham emas. Bunda ham gap moddiy va maʼnaviy yuksalishini birgalikda, uygʻun ravishda amalga oshirish haqida ketadi. Yaʼni, nafs hohishlariga mukkadani ketishi ham, nafs dunyosidan mutloqo voz ketish ham biryoqlama tamoyillar boʻlib, har ikki biryoqlamalikdan ustun boʻla oladigan, yaʼni yangi uchinchi paradigmani oldinga sura oladigan falsafiy dunyoqarashni shakllantirish zarur. Ushbu paradigmaning tezisi allaqachon buyuk Naqshband tomonidan «Dil ba yoru, dast ba kor» tarzida bayon etilgan. Endilikda gap faqat shu tezisning batafsil namoyon etadigan, ilmiy asoslangan falsafiy taʼlimotni ishlab chiqish va uni yoshlar tarbiyasiga tatbiq etishdadir. Zero avliyolar oʻz fikrlarini qisqa va chuqur bayon etishadi. Hozirgi fan va falsafa esa batafsilroq va konkretroq fikrlashga odatlangan. Maktabdan tortib oliy oʻquv dargohlariga qadar barcha oʻquv dasturlari shunday ratsional fikrlash asosida olib borilmoqda. Bu tabiiy, chunki insoniyat, shu jumladan bizning millatimiz ham oʻz ongi taraqqiyotida intellektual tafakkur darajasiga erishgan. Lekin avliyolarga xos irratsional darajaga hali erishganicha yoʻq.

Integrallashgan falsafaning vujudga kelishi. Lekin ratsional tafakkuriga xos boʻlgan bir illat borki, u komil insonni tarbiyalash ishiga halal berib kelmoqda. U ham boʻlsa, har bir masalaga, shu jumladan yoshlar tarbiyasi ishiga ham differentsiialashgan munosabatda boʻlishidir. Yaʼni ratsional falsafa koʻp sohalariga boʻlinib ketgan boʻlib, borliq (ontologiya), rivojlanishi, bilish (gnosologiya), axloqshunoslik, badiiy did, ijtimoiy muammolar, ruhshunoslik va hokozolar bir-biridan ajralib qolgani. Komil inson tarbiyasida esa bular, kompleks ravishda amal qilishi kerak. Chunki, masalan, yaxshi ahloq gʻoyalarini yoshlarga singdirish uchun borliq va unda insonning oʻmi, hayotining maʼnosi masalasini batafsil yoritish va asoslash taqazo etiladi. Shundan keyingina tarbiyalanuvchi ahloqiylik nima uchun zarur ekanini anglab etadi. Inson ruhiyati evolyutsiyasi masalasini ham izchil falsafiy kontseptsiyalar tahlilsiz amalga oshirish mumkin emas. Busiz ish olib borish esa hech nima qilmaslik bilan teng boʻladi yoki yuzaki gapirishdan boshqa narsa boʻlmaydi. Badiiy didni tarbiyalash va shu kabi boshqa sohalar haqida ham xuddi shunday fikrlardan aytish mumkin.

Bir soʻz bilan aytganda, falsafa oʻzining integral mavqeiini tiklab olishi kerak. Vaholanki, fanda shunga oʻxshash jarayon sodir boʻlayapti. Masalan, sinergetika, sistemalar nazariyasi, genetika kabi yangi fan

sohalari ikki va undan ortiq fanlarning integrallashuvi oqibatida yangi metafanlar kelib chiqayapti. Qolaversa, Platon, Aristotel, Kant, Gegel kabi faylasuflar ham o'z ta'limotlarini iloji boricha integral ta'limot sifatida ishlab chiqqanlar. Hozirgi kunda bunday ishni amalga oshirish uncha oson ish emas, albatta. Lekin ongimizni avvalgidan bir pog'ona yuqoriga ko'tarish uchun shu ishni amalga oshirmaslik va busiz komil inson shakllantirishni amalga oshirish mumkin emas.

Ma'naviyatning turli sohalarida ishlayotgan faylasuflar va olimlarning fikrlash darajalari, usul va uslublari bir xil va bir tekis emas va ayniqsa bugungi kunda bu xilma-xillik va xaos juda avjida. Shunday ekan barchaninig fikrini uyg'un bir mahrajga keltira oladigan tamoyilga muhtojlik katta ekani ravshan.

12-MAVZU:

HOZIRGI DAVR FALSAFASINING ASOSIY VAZIFALARI

REJA:

- 1. Falsafaning dunyoqarash vazifasining o'ziga xosligi*
- 2. Falsafa metodologiya sifatida*
- 3. Falsafaning umumlashtiruvchi vazifasi*
- 4. Falsafaning tarbiyaviyligi*
- 5. Falsafa mafkuraning asosi sifatida*

1. Falsafaning dunyoqarash vazifasining o'ziga xosligi

Falsafa dunyoqarash muammolarini yechish uchun borliq nima, tabiat, jamiyat, inson borlig'ining mohiyati nimada kabi muammolarni ham yechmog'i kerak. Bu muommolar dunyoning negizida yotuvchi narsa, qandaydir mohiyat yoki qurilish material bormi? Ushbu material qanday, qaerda, qay muddatda mavjud? kabi savollarni o'z ichiga oladi. Bu savollarga javob izlash falsafaning ontologik vazifasiga kiradi.

Dunyoqarash vazifasini bajarar ekan, falsafa diniy dunyoqarashdagi kabi payg'omga, to'g'ridan-to'g'ri ishonchga emas, mifologiyadagi kabi to'g'ridan-to'g'ri yorishuvga emas, balki insonning biluvchilik faoliyati zarrama-zarra yig'ilb kelayotgan natijalarga tayanadi.

Falsafa bilish jarayonining o'zini ham, uning tabiati, bosqichlari, haqqoniyligi, haqiqiy bilimning belgilari, mezonlari kabi bir qator muammolarni ham yechishiga to'g'ri keladi. Bu muammolarni yechish falsafaning gnoseologik vazifasiga kiradi.

Falsafa metodologiya sifatida. Dunyoni universal nazariy bilish vazifasini amalga oshirar ekan, ratsional falsafa bu ishni bevosita emas, ko'proq bilvosita amalga oshiradi. Ya'ni bu ishda u voqe olamning xilma-

xil qirralari, xususiyatlarini o'rganadigan maxsus fan sohalari – matematika, fizika, astronomiya, ximiya, biologiya, geologiya va boshqalarga, shu jumladan, kundalik hayotiy bilim va tajribalarga tayanadi. Zero, bizni qurshab turgan bu dunyo cheksiz murakkab, ko'pqirrali, xususiyatlariga ko'ra bepoyondir. Bu rang-baranglikni falsafa maxsus fanlarni jalb etmagan holda qamrab ololmaydi. Falsafaning vazifasi xilma-xillik asosida yotuvchi umumiyatni – dunyo va insonning mohiyati, tabiati muammolarini o'rganadi.

Falsafaning umumlashtiruvchi vazifasi. Ushbu umumiy bilimni hosil qilish uchun falsafa jamlash, tartiblash, umumlashtirish vazifalarini ham bajarishi darkor. Zero, falsafa uchun voqe dunyoning barcha ikir-chikirlari aniq bo'lishi shart emas, balki uning umumiy manzarasini chizib berish muhimdir. Buning uchun ayrimlikni o'rganuvchi fan sohalari to'plagan asosiy bilimlarni bir joyga to'plash, ularni muayyan tartibda joylashtirish va yaxlitlik g'oyasi ostida birlashtirish kerak. Shuni ham qayd etish lozimki, jamlash, tartiblash, umumlashtirish hamma fanda ham sodir bo'ladi. Buningsiz fanlarning asosini tashkil etadigan tushunchalar, qonuniyatlar kelib chiqishini, umuman, fan rivojini tasavvur etib bo'lmaydi. Lekin falsafadagi umumlashtirish boshqa darajadagi umumlashtirish bo'lib, bunda boshqa fanlardagi qonuniyatlar, tushunchalar, umulashmalar ayrimlik sifatida qatnashadi. Falsafiy tafakkurning butun murakkabligi ham ana shunda.

Ratsional falsafa bilish uslublari haqidagi ta'limot (metodologiya) vazifasini ham bajaradi. Zero maxsus fan sohalari o'z amaliyotida qo'llaydigan turli uslub va vositalar, ishonchli bilimga intiladigan falsafa uchun befarq emas. Shu munosabat bilan ilmiy izlanish uslublarini maxsus o'rganish, ularni taqqoslash, samaradorligini tekshirish, ularni qo'llash imkoniyatlari va chegaralarini o'rganish zarurati ham vujudga keladiki, ushbu masalalarni falsafiy tafakkur doirasida amalga oshirish mumkin va maqsadga muvofiq.

Insonning mohiyati haqidagi muammoga javob izlovchi dunyoqarash shakli sifatida falsafa tarbiyaviy vazifani ham bajaradi. Chunki insonning chin mohiyatini o'rganish uning hayotining chuqur va asl maqsadini aniqlashga olib keladi. Faylasuf shu maqsadga qanday erishuv mumkinligini ko'rsatib berishi mumkin. Kishilik falsafiy tafakkurining barcha xillari va tarixiy ko'rinishlarida inson hayotining asosiy ma'nosi baxtga erishuvdan iborat. Lekin bunga har qanday odam emas, faqat komil inson muyassar bo'ladi, degan javob bor. Masalan, «Inson vujudidan maqsad,-deb yozadi, buyuk donishmand Abu Nasr Farobiy,-eng oliy baxt-

saodatga erishuvdir; u baxt-saodat nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o'ziga g'oya va maqsad qilib olishi, unga butun vujudi bilan maftun bo'lishi kerak. Baxt-saodatga erishuv va tug'ma qobiliyatlarning rivojlanishi o'z-o'zicha bo'lavermaydi, balki bu masalada qandaydir bir muallim yoki rahbarga muhtojlik tug'iladi»□. I.Kantning falsafaning predmeti haqidagi mulohazalari ham Farobiyning ayni shu fikrlari bilan bir xildir. Mumtoz nemis faylasufi Fixte ham «Falsafa butun insoniyatning tarbiyachisidir»-degan edi. XX asrning argentinalik taniqli faylasufi X.A.Livraga esa, chin faylasuf o'zidan tinimsiz suv chiqarib turuvchi buloq kabidir, buloq bo'la turib suv chiqarmaslik mumkin bo'lmaganday, faylasuf bo'la turib kishilarni tarbiyamaslik mumkin emas-, deb yozgan edi. Hozirgi davr kishisi o'z hayotining ma'nosini topa olmay, ekzistentsial vakuumga tushib qolib, muhim hayotiy quvvatini yo'qotib borayotganidan tashvishlangan Amerika ruhshunos olimi F.Frankl ham shunday vazifani bajara oladigan falsafa haqida orzu qiladi.

Falsafaning tarbiyaviyligi

Falsafaning tarbiyaviy vazifasi ikki yo'nalishda amalga oshadi. Biri qadriyatlarni shakllantiruvchi qismi-aksiologiyani o'z ichiga olsa, ikkinchisi-falsafani amaliyotga tadbiq etilishi haqidagi ta'limot-prakseologiyadir. Demak, shu ma'noda falsafa aksiologiya va prakseologiya vazifalarini ham bajaradi. Lekin bu vazifalar chuqur ontologik ildizlardan kelib chiqishi kerak, ya'ni mustaqil bo'lsa .zaki demagogik g'oyalardan boshqa narsa bo'lmaydi.

Shunday qilib, biz falsafaning deyarli barcha asosiy vazifalarini va maqsadini ko'rib chiqdik. Lekin falsafaning vazifalari shularning o'zidagina iborat emas, albatta. Chunki falsafa tirik organizm kabi doimo o'zgarishda, o'sishda, yangilanishda bo'ladi. Bu jarayonda nafaqat uning arim vazifalari, balki ayrim ta'limotlari o'z quvvatini yo'qotib, dogmalashuvi, boshqalari esa o'z taraqqiyotini boshlashi yo davom ettirishi mumkin. Lekin, umumiy falsafiy tafakkur hech qachon o'sish, izlanishdan to'xtamaydi. U umumbashariy qadriyat sifatida doimo inson hayotining ma'naviy negizini tashkil etishda davom etadi. Rivojlanish jarayonida bo'lgan har qanday tirik organizmdagi kabi falsafaning ham o'sishi, rivojlanishi bilan bog'liq o'ziga xos qiyinchiliklari, muammolari muttasil yuzaga chiqib turadiki, ularning echib borilishi butun jamiyat hayotining asosida yotadigan masalalarning echilishi sifatida alohida ahamiyatga molikdir. Falsafaning rivojlanishida esa ijodiy tamoyil, intellektual intuitsiya va transtsendentsiyaning ahamiyati katta.

5. Falsafa mafkuraning asosi sifatida. Rivojlanish jarayonida falsafaning ayrim vazifalari eskirishi, o'z umrini tugatishi, yangilarining paydo bo'lishi, kuchayib borishiga misollar ko'p. Xususan, falsafa shakllanayotgan ilk davrlarda ayrimlikni o'rganish ham uning zimmasida edi, lekin ayrimlikni o'rganuvchi maxsus fan sohalari vujudga kelgach falsafa bu vazifasidan ozod bo'lib, asosan umumiyatni o'rganishga o'tishi mumkin bo'ldi. Buning o'rniga (ayrimlikni o'rganish vazifasi o'rniga) metodoogiyaviy funktsiyasi rivoj topdi. Shuningdek, ayrim davrlarda falsafaning ba'zi vaifalari yoki biron-bir vazifasi faol rol o'ynay boshlashi, boshqalari faol bo'lmasligi hollari ham kuzatiladi. Bu hol, albatta konkret falsafiy ta'limotning o'ziga ham, ijtimoiy shart-sharoitlarga ham bog'liq. Misol tariqasida Marks falsafasini olish mumkin. Sir emaski, sobiq ittifoq davrida bu falsafaning mafkuraviy funktsiyasi boshqa barcha funktsiyalaridan ustuvor bo'lib olgan va natijada boshqa vazifalarning rivoj topish imkoniyatlari juda torayib ketgan edi. Bu qanday sodir bo'lganligini anglash uchun mafkuraviy vazifa mazmuniga e'tibor berish kerak. Yunoncha (idea) ideya so'zi-g'oya degan ma'noni, (logos) logos esa, «ta'limot» degan ma'noni, birgalikda –«g'oyalar haqidagi ta'limot» ma'nosini bildiradi. Ushbu tushunchaning markscha ta'rifi esa, quyidagicha: «ideologiya ijtimoiy voqelikda namoyon bo'ladigan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy g'oyalar haqidagi ta'limot bo'lib, bu g'oyalarda kishilarning voqelikka munosabatlari o'z ifodasini topadi».

Agar biroz diqqat bilan qaralsa, bu ta'rifning faqat birinchi qismi, ya'ni «leologiya ijtimoiy voqelikda namoyon bo'ladigan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy-badiiy, falsafiy g'oyalar haqidagi ta'limot»-, degan joylarigina ideologiya so'zining asl ma'nosi hajmiga mos kelishini, qolgan qismi esa, ataylab kiritilgani ma'lum bo'ladi. Ayni shu tufayli «ideologiya» so'zining chin ma'nosi qadrsizlandi, uning umumiylik darajasi kamaydi, sifati buzildi. Zero, jamiyatdagi turli-tuman g'oyalar haqidagi harakatchan, betaraf, o'suvchan, o'zgaruvchachn bilim bo'lish o'rniga ideologiya kishilarni muayyan voqelikka konkret munosabatini yo'naltirish vositasiga aylantirildi. Bu esa, umumiylikning ayrimlik darajasiga tushirishdan iborat mantiqiy xato (sofizm) edi. Shu xato tufayli mafkura konkret shakl tutquniga aylandi, o'z vazifasini to'g'ri bajarish o'rniga maddohlikka aylandi.

“Mafkura”ga shu xilda tor yondashuv uni «jamiyatdagi muayyan qatlamning; guru h, sinf manfaatlarini ifoda etib kelgan siyosiy, huquqiy, diniy, axloqiy, badiiy g'oyalar» darajasiga tushiradi. Ayni shu darajaga tushib qolgan «Mafkura» jamiyat hayotida o'z vazifasini to'g'ri bajarish

imkoniyatiga ega bo'la olmaydi, va aksincha, tor guruhiy, sinfiy manfaatparastlikdan qanchalik yuqori chiqa olsa, bu mafkura shuncha to'g'ri va foydali bo'ladi.

Ayni zamonda mafkurani dunyoqarash bilan, shu jumladan, faqat falsafiy dunyoqarash bilan bir deb qarash yaramaydi. Bu tushnchalar orasida muayyan bog'lanish mavjudligi bilan birga, muhim sifat farqlari ham bor. Zero, dunyoqarash dunyo va inson orasidagi munosabatga daxldor juda keng muammolar doirasini o'z ichiga olsa, mafkura jamiyatni tartiblashuviga oid g'oyalarni muayyan g'oyalarni o'z ichiga oladi. Shu ma'noda u siyosiy faoliyatning g'oyaviy asosi bo'lishi mumkin va o'z siyosiy faoliyat yo'nalishiga ega bo'lishni istaydigan har qanday davlat, siyosiy partiya shu yo'nalish uchun asos bo'ladigan konkret mafkurga muhtojdik xis etadi. Lekin, har qanday mafkuraning o'zi ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki shakllangan muayyan dunyoqarash zaminidan o'sib chiqadi. Shuning uchun, bugungi kunda mustaqil mamdakatimiz ma'naviyatiga, xususan, mafkurasiga asos bo'la oladigan dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishi har qanday ishdan muhimroqdir.

Shunday qilib, ijtimoiy voqelikda namoyon bo'lib turgan va siyosiy faoliyat yo'nalishini belgilaydigan g'oyalar haqidagi ta'limot sifatida mafkura har qanday dunyoqarashning, shu jumladan, falsafaning muhim vazifalaridan biridir. Ayni shu vazifa bilan falsafa amaliyotning ko'p sohalariga: ayniqsa, siyosiy amaliyotga ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, siyosiy amaliyot dunyoqarashning ayni shu vazifasidan keng foydalanadi. Bu tabiiy va sog'lom intilish bo'lib, uning asosida mamlakat ma'naviyatida, ichki dunyosida nimalar sodir bo'layotganini bilish maqsadi yotadi. Bunday bilimni nazardan soqit qilish esa o'zining chuqur ma'naviyatiga, yuksak aql-zakovatiga va xis-tuyg'ulariga, qadriyat haqidagi tasavvurlariga ega bo'lgan chin insonlar jamiyatini emas, balki, hayvonlar to'dasini boshqarish bilan bir bo'ladi.

Ijtimoiy qadriyatlar haqidagi g'oyalar tizimi sifatida mafkura nafaqat siyosatda, balki ijtimoiy turmushning barcha sohalarida - ilmiy bilimlar xosil qilish, san'at asarlarini yaratishdan tortib oddiy jismoniy mehnat jarayoniga qadar keng qatnashuv imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, mafkura jamiyat amaliy hayotining dunyoqarashdan keyingi poydevorini tashkil etadi. Shunga ko'ra, mafkuraning mustahkamligi, hayotga yaroqliligi uning tayangan zaminiga dunyoqarash qandayligiga bog'liqdir. Mafkura asosida yotuvchi diniy yoki falsafiy ta'limot qancha teran, chuqur asoslangan, umumbashariy qadriyalar bilan sug'orilgan, yuksak ezgulikka yo'naltira oladigan bo'lsa, uning mafkuraviy vazifasi ham shunchalik yaxshi amalga

oshadi. Va aksincha, cheklangan dunyoqarash vazifalari ham o'ziga yarasha bo'ladi. Zero, bunday ta'limotlar jamiyatdagi muayyan qatlam, sinf va hatto, guruhning tor manfaatlarinigina himoya qilishdan nariga o'ta olmaydi. Chinakam teran dunyoqarash esa, haqiqat qaerda bo'lmasin unga etishmoqni istasa, kimlargadir hayrixohlik bilan, kimlargadir adovat bilan qarashdan ehtiyot bo'lishi kerak. Aks holda, bunday mafkura sog'lom g'oyalar mazmunidan iborat bo'lmaydi, u go'yo ko'ziga rangli ko'zoynak taqib olib, dunyoni o'sha rangda deb tasavvur etadigan kishiga o'xshab ketadi.

Bu erda yana shuni alohida qayd etish lozimki, mafkuraning tarafkashlikka aylanib ketishi shu mafkurani vujudga keltirgan ta'limotning o'zi uchun ham zararlidir. Zero, bunday mafkura o'zini vujudga keltirgan dunyoqarashning muhim vazifalaridan biri bo'lib hizmat qilish, ob'ektiv g'oyaviy tizim bo'lish o'rniga siyosatning qo'shimchasi va hukmronlik quroli bo'lib hizmat qila boshlaydi. Bunday mafkura pirovardda o'zini vujudga keltirgan dunyoqarashga ham yomon aks ta'sir etadi. Chunki, mafkura ham o'zining mavjud bo'lishi uchun muayan ma'naviy manbadan quvvat olishi kerak. Shu maqsadda u o'z xulosalarini "oziqlantirib turish" imkoniyatini izlaydi. Buning uchun mafkura dunyoqarashni ham xuddi o'zi kabi siyosiy voqelik hizmatkoriga aylantirishga intiladi. Bunday sharoitda faylasuflar donishmandlik ustozlari bo'lish u yoqda tursin, hatto oddiy olim darajasida ham tura olmaydilar ular mavjud siyosiy hukmronlik shaklining quruq madhiyabozlariga aylanadilar. Shunday bo'lgach, ta'limotning o'zi ham mazmunan zaiflashib, siyqasi chiqib, dogmalashib boraveradi. Mazkur hikmatni payg'ambarlar ham, so'fiylar ham alohida ta'kidlashgan. Masalan, buyuk shayx mavlono Jaloliddin Rumi "Payg'ambar sallolohu alayhi vassalom buyuradilarki, "Olimning yomoni amirlarni ziyorat qilgani, amirlarning yaxshisi olimlarni ziyorat etganidir..." "-, degan fikrni o'z hamsuhbatlariga uqtirgan. Mafkura darajasiga tushib ketish nafaqat falsafada, diniy dunyoqarashda ham sodir bo'lgan.

Yuqoridagi mulohazalardan falsafa siyosatga, siyosat falsafaga befarq bo'lishi kerak ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi. Fuqarolar amaliy faoliyatini yo'naltira oladigan siyosat uchun kuchli ong manbai juda zarur. Busiz siyosat qorong'u shahar ko'chalarida yo'l topa olmay yurgan musofirni eslatadi. O'z navbatida falsafa ham siyosatga befarq bo'la olmaydi. Zero, uning dunyoqarovichilik mazmunida siyosiy hayot, siyosiy faoliyat, siyosiy bilim va qadriyatlar ham o'z o'rniga ega. Lekin falsafaning siyosat bilan bog'lanishi bilimning o'z tadqiqot ob'ekti bilan

bogʻlanishidan ortiq boʻlmasligi kerak. Shunday boʻlgan taqdirda falsafa faqat siyosat bilan emas, balki butun maʼnaviy madaniyat bilan uzviy bogʻliq boʻlishi va ayni zamonda bajaradigan barcha vazifalari bilan birgalikda, dogmaga aylanmaydigan, doimo yangilanib turuvchi yaxlit jonli tizimga aylanishi zarur. Boshqacha aytsak, umuman falsafiy dunyoqarash katta suv ummoni kabi turli falsafiy oqimlar, maktab yoʻnalishlari esa bu ummonga oʻz suvlarini quyadigan daryolar kabi boʻlishlari maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. «Qur'oni karim». (A.Mansur tarjima va izohlari). «Cho'lpon». Toshkent, 1992.
2. A.Gxosh. Chelovecheskiy sikl. Kazan. 1992
3. A.Navoiy. Lisonut-tayr. T., 1984.
4. A.Sh.Juzjoniy. Tasavvuf va inson. T., «Adolat», 2001.
5. A.Shimmel. Jonon mening jonimda. T., «Sharq», 1999.
6. Abdulhay Abdurahmonov. Saodatga eltuvchi bilim. I-II kitob. T., «Movaraunnahr», 2005.
7. Abdurahmon Jomiy. O'zFA X.S.Sulaymonov nomidagi qo'lyozmalar instituti. T., 1997.
8. Абу Али Ибн Сина. Избранные произведения. Т., 1,2.
9. Abu Ali Ibn Sino. Falsafiy qissalar. (A.Irisov tarjimasini. T., 1980).
10. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1993.
11. Abul Muhsin Muhammad Baqir ibn Muhammad Ali Bahouddin Balogardon. T., «Yozuvchi», 1993.
12. Aziziddin Nasafiy «Zubdat ul haqoyiq» t. 1997.
13. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T., 1992.
14. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. М., «Наука», 1965.
15. Горбовекий А.А. Загадки древнейшей истории. М.1971.
16. Diniy ekstremizm va fundamentalizm tarixi, mohiyati va bugungi xavfi. T. 2000.
17. Jaloliddin Rumiy «Ichindagi ichindadur» T.1997.
18. Jaloliddin Rumiy. Ma'naviy masnaviy. T., «Sharq», 1999.
19. I.A.Karimov «Sog'lom avlodni tarbiyalash barchamizning burchimizdir» Tafakkur №2.2000.
20. I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» T.2000.
21. И.Пригожин, И.Стенгерс Порядок из хаоса. М., 2000.
22. Ibrohim Haqqul. Irfon va idrok. T., «Ma'naviyat», 1998.
23. Идрис Шах. Невидимая газель. М., 2001.
24. Идрис Шах. Суфизм. М., 1994.
25. Imom Abu Hamid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy. Ihyou ulumiddin. Birinchi kitob. T., «Mavoraunnahr», 2003.
26. Imom at-Termiziy. Shamoili Muhammadiyya. T., «Mehnat», 1991.
27. K.B.Bo'ronov. Tasavvuf falsafasi xususida. T., «Yozuvchi», 2000.
28. К.М.Догов Диалектика и схоластика.М., 1988.
29. Komil inson haqida to'rt risola. (N.Komilov tarjimasini). T., Ma'naviyat. 1997.
30. Лия Соколова. Статья Сан Бабба. Уфа. 2002.
31. M.A.Jo'shon. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. T., «Cho'lpon», 2000.

32. M.Imomnazarov. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T., «Sharq», 1996.
33. M.Iste'lomiy. Mavlono Jaloliddin balhiy. Tehron-2001.
34. M.Карпенко Вселенная разумная. М.1992.
35. M.N.S. Al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. T., «Mavoraunnahr», 1999.
36. M.S.Rushdiy. Avliyolar sultoni. Turonlik valiylar. T., «Kamalak», 1995.
37. Me'rojnoma. T., «Yozuvchi», 1995.
38. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar T.2000.
39. Мифы народов мира. Энциклопедия. В.2 т. М., 1994.
40. N.Komilov Tasavvuf 1-2 kitoblar, T.1996.
41. N.Komilov. Tafakkur karvonlari. T., «Ma'naviyat», 1999.
42. Navoiy «Lison ut-tayr» T.1991.
43. О.Шпенглер Закат Европы. Ростов на-Дону.1998.
44. Ошо Раджниш Тастна (беседы о суфизме). Киев. «София», 1998.
45. П.С.Гуревич Основы философии М. 2002.
46. Р.Фиш. Жалолиддин Румий. Т., 1986.
47. S.Olim. Ishq, Oshiq, ma'shuq. T., «Fan», 1992.
48. Sadridin Salim Vuxoriy. Dilda yor. T., 1993.
49. Самознание Европейской культуры XX века М., 1991
50. Самознание Европейской культуры XX века М., 1991.
51. Sultonmurod Olim. Naqshband va Navoiy. T., «O'qituvchi», 1996.
52. Суфийская мудрость. Минск. 1998.
53. Turkiyada yassaviyshunoslik. T., 1999.
54. U.Xayyom. Ruboiylar.
55. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. T., «Istiqlol», 1999.
56. Ф.Ницше, З.Фрейд, Э.Фромм, А.Камю Сумерки богов. М.,1989.
57. Falsafa:ma'ruzlar matni T.2000.
58. Философия. Учебное пособие для студентов ВУЗов Ростов на-Дону. 1999.
59. Forobiy «Fozil odamlar shahri» T. 1993.
60. Фрагменты ранних греческих философов. Ч.1. Фрагменты о Гераклите, Пифагоре, Анаксагоре и др. М., «Наука», 1989.
61. X.Hamidiy. Tasavvuf allomalari. T., «Sharq», 2004.
62. Хазрати Инсоният Хан. Мистицизм звука. Казань, «Сфера», 1997.
63. Хо`ja Ahmad yassaviy. (hayoti, ijodi va an'analari). T., 2001.
64. Sh.Qahhorova. Metafizika ta'limot va uslub sifatida. «Falsafa va huquq» jurnali. 2004. №1.
65. Sh.Qahhorova. Umar Xayyom dunyoqarashining mohiyati. (Xalqaro ilmiy anjuman materiallari). Tehron-Toshkent, 2004.

MUNDARIJA:

KIRISH	2
1 - MAVZU: DUNYOQARASH, UNING INSON VA JAMIYAT XAYOTIDAGI ROLI.....	3
2 - MAVZU: MIFOLOGIK DUNYOQARASH.....	8
3-MAVZU: DINIY DUNYOQARASH.....	13
4- MAVZU: ILMIY DUNYOQARASH	16
5-MAVZU: FALSAFA – QADIMIY DONISHMANDLIK.....	20
6- MAVZU: FALSAFA TARIXI QADIMIY DONISHMANDLIKNING INVOLYUTSIYASI VA UMUMINSONIY ONGNING EVOLYUTSIYASI JARAYONI SIFATIDA	24
7-MAVZU: FALSAFA VA DIN.....	29
8-MAVZU: FALSAFA VA SAN'AT.....	33
9-MAVZU: FALSAFA VA FAN.....	37
10-MAVZU: FALSAFA METOD MUAMMOSI	41
11-MAVZU: FALSAFANING INTEGRALLASHISHI MUAMMOSI	44
12-MAVZU: HOZIRGI DAVR FALSAFASINING ASOSIY VAZIFALARI.....	46
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:.....	53